

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

«TASDIQLAYMAN»
Andijon qishloq xo‘jalik va
agrotexnologiyalar instituti o‘quv ishlari
bo‘yicha prorektor
_____M. Atajanov
2021 yil «__»«__»_____

“NUTQ MADANIYATI”
fani bo‘yicha
O‘Q U V – U S L U B I Y M A J M U A
1- bosqish magistratura yo‘nalishlari ushun

Mutaxassislik: 5A230102–Iqtisodiyot (qishloq
ho‘jaligida)

5A450402 – Nasos stantsiyalari
va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi

5A430301 – Gidromelioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalashtirish

Andijon-2021-2022

O'quv-uslubiy majmua Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: “O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrası kata o‘qituvshisi pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) M.R. Alijonova

Taqrizchi:

M.Artiqova

Andijon davlat universiteti “Pedagogika” kafedrası dotsenti, p.f.d

Kafedra mudiri

A. Qambarov

MAJMUANING QISQACHA ANNOTATSIYASI

O‘quv-uslubiy majmua – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida va magistratura ta‘lim bosqichilarining O‘quv rejalarida aks etgan fanlar bo‘yicha professor-o‘qituvchining dars jarayoniga o‘quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi eng muhim mezon, me‘yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o‘qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda yetkazish (talaba uchun – o‘zlashtirish) uchun yagona o‘quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O‘quv-uslubiy majmua Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistratura ta‘lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- *fanning me‘yoriy-uslubiy ta‘minoti,*
- *fanning mazmuni va axborot-resurs ta‘minoti,*
- *fanni o‘qitishning interaktiv texnologiyalari,*
- *talabalarining bilimni baholash uslubiyoti,*
- *qo‘shimcha elektron ta‘lim resurslarini o‘z ichiga olgan.*

Majmuani takomillashtirish masalalari.

Elektron o‘quv-uslubiy majmua o‘quv yili mobaynida xalqaro va milliy qishloq xo‘jaligi tizimidagi o‘zgarishlar va tendentsiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

Nutq madaniyati fani o‘z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- bo‘lajak o‘qituvchilarini pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish;
- innovatsion muhit sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni egallash; zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng doirada qo‘llay olishga yo‘naltirish;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, “**Nutq madaniyati**” fani fundamental fanlardan biri bo‘lib, boshqa qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

MUNDARIJA

№	1.Ma’ruza mavzular nomi	Ajratilgan soat
1	O‘qituvchining nutq madaniyati fanining mazmuni maqsad vazifalari	2
2	Nutq madaniyati va notiqlik tarixi	2
3	Pedagog nutqi va uning texnikasi	2
4	Nutqning uslubiy turlari	2
5	Tilning tasviri vositalari va nutq madaniyati	2
6	Fikrni og‘zaki bayon qilish	2
7	O‘qituvchi nutq odobi va uslubi	2
	2.Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari	
1	O‘qituvchining nutq madaniyati fanining mazmuni maqsad vazifalari	2
2	Pedagog nutqi va uning texnikasi	2
3	Pedagog nutqi va uning texnikasi	2
4	Nutqning uslubiy turlari	2
5	Tilning tasviri vositalari va nutq madaniyati	2
6	Fikrni og‘zaki bayon qilish	2
7	O‘qituvchi nutq odobi va uslubi	2
8	Ifodali o‘qish	2
3	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari	
4	Glossariy	
5	Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati	
	Na’munaviy o‘quv dasturi	
	Ishchi dastur	

1-MAVZU. O‘QITUVCHI NUTQI MADANIYATI KURSINING MAQSADI VA VAZIFALARI

- 1.O‘qituvchi nutq madaniyati kursining dolzarbligi, uning maqsad va vazifalari.
- 2.Nutq madaniyati tushunchasi.
- 3.Nutq madaniyati kursining lingvistik va nolingvistik sohalar bilan aloqasi.

Tayanch iboralar: Nutq madaniyati kursining maqsadi, vazifalari, nutq madaniyati tushunchasi, nutq madaniyati va boshqa fanlar.

1. O‘qituvchi nutq madaniyati kursining dolzarbligi, uning maqsad va vazifalari.

Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, umumiy o‘rta t1lim maktablar va umuman dars o‘tish jarayonini yaxshilash bilan ham bogliq. SHuni qayd qilish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati kursinining barcha o‘quv yurtlarida o‘rgatilishi quvonarlidir. CHunki notiqlik san’ati sirlarini o‘rganish, o‘z fikrini bayon qila olish, til vositasini kerakli va lozim bo‘lgan o‘rinda qo‘llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O‘zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o‘rganish ham o‘zbek nutqi madaniyati sohasi uchun nixoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til meyorlarining umumiy holatini, undagi turgun va noturgun hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas.

Til ham, fe‘l-atvor ham odamga qon bilan kirib, uning butun jismu joniga taralib ketuvchi ananalar ekan, bularga e‘tibor bermaslik, hamisha katta-kichik fojialarni keltirib chiqaradi.

2. Nutq madaniyati tushunchasi.

Nutq madaniyati fani o‘zbek tilshunosligining o‘ziga xos amaliy sohasidir. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzish yo‘llarini o‘rgatadi. U til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Nutq madaniyati fan sifatida o‘z tekshirish ob’ekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til normalari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir. Nutq madaniyati nazariyasida til normasi markaziy tushunchadir. «Til madaniyatining asosiy tekshirish obekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo‘lmog‘i kerak»

Shunday qilib, nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi undagi ba’zi unsurlarning eskirishi, ular o‘rnida yangi

normativ unsurlarning paydo bo'lishini ko'zatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, bl'zi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini ko'zatib boradi, ob'ektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi hech birimizga sir emas. Bu til diyorimiz vakillari uchun umumiy til sifatida shakllandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi jumxuriyatimizda davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, tl'lim-tarbiya, targibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilyapti. Lekin, shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati etarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. SHu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. SHunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shu2ullanish ishiga faqat tilshunoslarga emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vaqillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. SHunki, nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bqlib, kishilarni yuksak madaniyatli bo'lishlarini belgilaydi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro hayotda ikki qarama-qarshi ijtimoiy gurux o'rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tqir va keskin bo'lishini taqazo etadi. Prezidentimiz I.A. Karimov ham bunga alohida e'tibor berib bunday degan edilar: «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin»: «...Eng dahshatli fikr qaramligi tafakkur qulligi»...

«...Maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi, aminmanki o'rgatilmaydi. Mabodo, biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Prinsip ham tayyor: mening aytganim-aytgan, deganim-degan».

«O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan tllim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo, bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».

3.Nutq madaniyati kursining lingvistik va nolingvistik sohalar bilan aloqasi.

Nutq tadbirkorligini singdirish maktabda o'qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashgulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Shu o'rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maxmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o'tish lozim: «Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan

maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shugullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. TIlim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir». («Ma'rifat manzillari» N. Mahmudov)

Akademik A.Hojiyev o'zining «Lingvistik terminlarning izohli lug'ati» kitobida nutq madaniyati terminiga quyidagicha ta'rif beradi.

1.Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotidagi tildan foydalanish jarayonini o'rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo'lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shugullanuvchi bo'limi.

2.Nutqning normativligi, uning ma'lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so'zlashuvchi jamoa tomonidan qo'yiladigan talablarga mosligi: talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, shakl yasalihi, so'z birikmasi va gap tuzish meyorlariga amal qilish. Nutqning normativligi fikrning aniq,ravshan va sofligini ham o'z ichiga oladi (yq- bet). Demak, nutq madaniyati tushunchasi ikki xil (tor va keng) ma'noda qo'llanilar ekan.

Nutq madaniyati fani tilning hamma sohalari bo'yicha adabiy til normalarini tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy normasini mustahkamlash uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy normalarni yaratmaydi, blzi bir hodisalarni norma sifatida majburan kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyati, uning rivojlanishni kuzatib boradi, ob'''ektiv qonunlarni kashf etadi, shular asosida tllim beradi.

Nutq madaniyati o'zbek tilshunosligining nazariy bilimlariga suyangan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzish sanatinini o'rgatadi. U tarbiyashunoslikning malum sohasi sifatida chiroyli nutq sifatlari, nutq uslblari, kamchilik va xatolari, nutqiy asoslari, ko'rinishlari hamda talffuzga doir muammolari yuzasidan bilim beradi. Kishilarda madaniy nutq malakasini shakllantirish, yani adabiy til, umumtil mezonlariga, mavjud qoidalariga to'la amal qilagan holda nutq tuzish malakasini shakllantirish nutq sanltining asosiy vazifalaridar. Shu bilan birga yaxshi nutqni baholash va targ'ib qilish ham uning vazifasi doirasiga kiradi.

Nutq madaniyati kursi lingvistik sohalarning barchasi bilan chambarchas aloqador. Shunngdek u adabiyot, pedagogika, psixologiya, etika, estetika kabi fanlar bilan ham aloqadorlikka ega.

Umumiy madaniyatni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblangan nutq madniyati, shuningdek nutq odobi, muomala madaniyati ularning o'zaro munosabati kabilar yangi asr bo'sag'asida o'zining umumjahon halqlari o'rtasidagi o'rni va mavqeini anglashga intilayotgan kishilar tomonidan o'z-o'ziga berilayotgan savollarga topilgan eng ixcham va ilmiy asosga ega javoblardan biri shuki, insonning kimligi uning ikki jihati - xatti-harakati va so'zi (nutqi), odamlar bilan o'zaro muomalasida namoyon bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1 .Nuqt madaniyati haqidagi ta'limot qadimda qaerda shakllangan?
- 2.Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan mutafakkirlardan

kimlarni bilasiz?

3. Nutq madaniyati kursini o'qitishdan maqsad nima?
4. Kursning maqsad va vazifasi haqida so'zlang.
5. Nutq madaniyati kursining dolzarbligi nimada?
6. Nutq madaniyati boshqa qaysi sohalar bilan aloqadorlikka ega?
7. Nutq madaniyatiga bog'liq qanday asarlarni bilasiz?

2- Ma'ruza: NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK TARIXI

1. Til siyosatining shakllanishi
2. Sharqda notiqlik san'ati.
3. Tilning sofliqi uchun kurash
4. Mamlakatimizda tilga bo'lgan e'tiborning taraqqiy topishi.

Tayanch iboralar: *Notiq, Sinegorlar, Logograflar, Epideyktik, notiqlik, Nahv, Nazm, Nasr, Mantiq, Nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar.*

1. Til siyosatining shakllanishi

Nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar qadimgi Misr, Ossuriya, Bobil (Vavilon) va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'targan edi. Chunki u paytlarda davlat arboblarning obro'- e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulu2langan. Bu ikki san'atni mukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar. Umuman etuk inson bo'lish uchun, albatta, notiqlik san'atini egallash shart qilib qo'yilgan. Grek notiqolari Demosfen, Aristotel va Rim notiqolari Siseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotlaribunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdilar. Siseronning "Notiqlik haqida", "Notiq", "Brut" asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari ham qadimgi Rim va Yunonistonda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi rivojlanganligini ko'rsatuvchi bir omildir.

Notiqlik sanati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning quyidagi turlarini ko'rishimiz mumkin:

q. Siyosiy-ijtmoyi notiqlik (siyosiy, iqtisodiy sohadagi, sessiya, anjumandagi, diplomatik, harbiy vatanparvarlik, miting nutqi va h.)

2. Akademik notiqlik (o'quv yurtlaridagi, ilmiy ma'ruzalar, ilmiy sharh, axborot kabi)

e. Sud notiqligi (Qoralovchi, oqlovchi, o'z-o'zini himoya qilish kabi).

r. Ijtimoiy-maishiy notiqlik (madhiya, yubiley yoki maqtov, tltiya (motam), tabrik (tost, alyor) nutqi kabilar.

t. Diniy notiqlik (xutba, vlz)

Yunonistonda sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko'zlab nutq so'zlovchilar sinegorlar (hozirgi advokatlar) deyilgan. Logograflar ded ataluvchi toifalar esa

sinegorlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, nutq matnlarini tuzib, yozib berish bilan shug‘ullanganlar.

Afina tuprog‘ida notiqlik san’atiga juda qiziqish natijasida uning yangi-yangi turlari yuzaga kela boshlagan. Ana shulardan biri epideyktik notiqlik, yani tantanali notiqlikdir.

2. Sharqda notiqlik san’ati.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o‘ziga xos mavqega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya’ni, va’zxonlik, Qur’onni targ‘ib qilish bilan mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma’nosi va undan o‘rinli foydalanish borasida ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai-nazardan qaralsa, “Nutq odobi”, “Muomala madaniyati” nomlari bilan yuritilib kelgan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortib kelgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Mahmud qoshqoriy, Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, So‘fi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman nutqqa jiddiy e’tibor berishga da’vat etish bilan birga tilga, lug‘atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka oid asarlar yozdilar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (97-104 -yillar) o‘zining “Geodeziya” asarida har bir fanning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchitil haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosa chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyatli zo‘rligi haqida shunday yozadi: “qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qnday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substantsiya -narsalar) va aksidensiya (hodisalari)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlaymiz.”

Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsidentsiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hiqmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzilishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir. Ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz .Abu Nasr Forobiy. Risolalar. T., 1975. 54-b.

Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi SHarq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan “Qobusnoma»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo‘lib, uning 6-7-boblari so‘z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlar orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko‘z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi kamtar bo‘lishi, o‘zini xalq orasida oddiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib,

maxmadonalik qilish, ko'p gapirish donolik belgisi emas... "Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang, ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi aqlli odam bo'lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi..."

Ulug' shoir Yusuf Xos hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim") asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash haqida: "Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur" degan edi. qisqa so'zlash, so'zlarga iloji boricha ko'proq ma'no yuklash haqida:

Ugush so'zlama so'z biror so'zla oz,

Tuman so'z tugunini bu bir so'zla yoz. deydi.

Mazmuni:

So'zni ko'p so'zlama, kamroq so'zla. Tuman (ming) tugunini shu bir so'z bilan ech. Gapirishdan maqsad so'zlovchi ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan etkazishdan iborat. SHunday ekan, nutqning to'g'riligi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, xovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII asrlar) ham so'zlaganda nutqni o'ylab, shoo'masdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagin, deb so'zlovchini ogohlantiradi:

O'quv so'zla so'zni eva so'zlama,

So'zing qizla, kedin, boshing kizlama.

(Mazmuni, so'zni uqib so'zla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas so'zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.)

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko'rsatmalarda sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik, laqmalik, qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik, tilyog'lamachilikni qoralash va boshqalar haqida gap boradi.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u eng avval o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notqlik san'ati ustalarining nadimlar, qissago'ylar, masalgo'ylar, badihago'ylar, qiroatxonlar, muammogo'ylar, voizlar, go'yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to'g'ri anglovchi sog'lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to'g'ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. o'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo'lgan buyuk shoir Alisher Navoiy turkiy tilda nutq tuzishning bayroqdori sifatida uning butun ijodi bilan o'zbek tili boyliklarini namoyon etdi. Navoiy o'zbek adabiy tilida buyuk asarlar yaratish mumkinligini namoiysh qildi. Shoir o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida har bir tilning ijobiy va salbiy tomonlari borligini eslatib o'tadi. Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul- qulub", "Nazmul javohir" asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi. U o'zining "Mahbub ul qulub" asarida shunday deydi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, boshning ofatidir...", ya'ni til shuncha sharafi bilan nutqning

qurolidir, agar u o'zining ishlatilishi tilning ofatidir.

Navoiy to'g'ri, qisqa, lo'nda, yoqimli, mantiqli, tushunarli, jo'yali, aniq va ta'sirli nutq haqida o'zining "Arbain" asarida, shuningdek, "Xamsa" asaridagi besh dostonning har birida ham ajoyib fikrlarni aytib o'tgan. O'zbek mumtoz adabiy tilining xomiyasi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy turkiy tilda g'azal, nutq tuzishning bayroqdori sifatida o'zining butun ijodi bilan o'zbek tili boyliklarini, uning latif va go'zal qirralarini kashf etdi. Keyingi asrlarda ijod qilgan Xorazmiy, Bobur, Munis, Mashrab, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz o'tar o'2li, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda, hamza va boshqa buyuk mutafakkirlar ham o'zbek muloqot xulqi haqida o'z fikrlarini turli janrlardagi asarlarida bayon etdilar.

Biroq nutq madaniyati muammolari bilan ilmiy asosda jiddiy shug'ullanish masalasi birinchi marta Praga lingvistik to'garagi vakillari tomonidan o'rta tashlandi. Ular 1929-yilda Pragada bo'lib o'tgan slavistlarning I sy'ezdi uchun tayyorlangan maxsus tezislari va keyingi asarlarida bu masalaga alohida to'xtalib o'tganlar. Yuksak taraqqiy etgan, Amerika, Yaponiya, Angliya, Germaniya va boshqa qator xorijiy davlatlarda tadqiqotchilar hozirgi paytda asosiy e'tiborlarini xuddi shu masalaga qaratmoqdalar. Bunga Madelin, Berkli-Alen, R.Brikman,

R.Kershner, V.Birkenbil, Ch.Likson, D.Karnegi, A.Piz, F.Nitshe, L.Gumilyov kabilaning ishlarining misol qilib ko'rsatish mumkin.

3. Tilning sofliqi uchun kurash

G'arb mamlakatlarida nutqiy muloqot, uning sotsiolingvistik, psixolingvistik va pragmatik jihatlarini o'rganishga ba'zishlangan ko'plab maxsus jurnallar chiqib boshladi. So'nggi -yillar AQSh olimlari nuqtai muloqot sohasida juda katta tadqiqotlarni olib borayotganlarini aytib o'tish kerak. AQShda muloqot va ritorika bilan mashg'ul ko'plab ilmiy jamiyatlar va assotsiatsiyalar tashkil topganini va ular o'z ilmiy izlanishlarini chop etib borayotganliklarini eslatish zarurdir.

Bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganishga rus tilshunosligida 2000-yillarda kirishildi.

Turkologiyada ham insonlarning o'zaro muloqotga kirishish jarayoni tilshunoslarning diqqatini anchadan beri o'ziga jalb etib keladi. Jumladan, F.F.Sultonov, N.Djunusov, A.B.Medjidova, T.Aydarov, T.Karakeyeva, Saidbekova kabi olimlar bu masala ustida maxsus izlanishlar olib borganlar.

O'zbek tilshunosligida bu masala bilan jiddiy shug'ullanish endigina boshlandi deyish mumkin. Bu holni o'zbek tilshunos olimlari S.Ibrohimov, O.Usmonov, Begmatov va boshqalar 1969-yili Toshkentda nutqimiz rivoji masalalari mavzuida o'tkazilgan Birinchi Respublika Konferentsiyasida qilgan ma'ruzalarida alohida ta'kidlaydilar. Jumladan, "...Masalaning bunday qo'yilishidan o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammosi, umuman, o'rta qo'yilmagan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Nutq odobi deb yuritilib kelingan qoidalarning o'ziyoz, bu masalaning ko'hna tarixga ega ekanligini ko'rsatadi, qolaversa, 20-yillarda til qurilishi, til siyosati degan nomlar bilan yuritilgan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ulkan tadbir va choralarning o'sha vaqtda til madaniyati, endilikda nutq madaniyati deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqadorligini belgilash Zoyat muhimdir", deb yozadi e.Begmatov. Afsuski, o'zbek tili nutq madaniyatiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o'rganish o'rta qo'yilgan emas. o'zbek tilshunoslaridan S. Ibrohimov, E.Begmatov, L.Xo'jaeva, B.O'rinboyev, A.Rustamov, S.Inomxo'jaev, S.Karimov, T.qurbonov, A.Abduraxmonov, N.Maxmudov, T. Qudratov, Yo.Tojiyev, N.Hasanova, Tojimatov,

O.Qo'ldosheva, B.X.Raxmatullaeva, Sh.Iskandarovalarning ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan.

Nomlari ta'kidlab o'tilgan mualliflarning ishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilshunosligida ham nutq madaniyati va uning nazariy masalalari bo'yicha anchagina izlanishlarning aksariyati nutq madaniyatini sof lingvistik, uslubiy yoki pedagogik maqsadga yoritib berishga qaratilgan bo'lib, masalaga ijtimoiy-lisoniy aspektda yondoshilmagan.

Xullas, asrlar mobaynida kishilarni qiziqtirib kelgan nutq madaniyati soxasi ilmiy muammo sifatida tan olindi va uni chuqur tadqiq qilish lozimligi ko'pchilik olimlar tomonidan maqullandi. Shu sababli xam tilshunos V.V Veselitskiy 60- yillarning boshlaridayoq: "hozirda nutq madaniyati bo'yicha tadqiqot olib borishning zarurgini isbotlab o'tirish ortiqchadir" deb yozgan edi.

4. Mamlakatimizda tilga bo'lgan e'tiborning taraqqiy topishi

O'zbekiston dunyoga, dunyo xalqlari O'zbekiston nazar tashlayotgan, butun o'zbek xalqi o'z Prezidenti atrofida tobora mustahamroq jipslashib, milliy ma'naviyat, milliy ong, milliy mafkura haqida har qachongidan ham ko'proq qayurayotgan bugungi kunda biz bilan do'stona va samimiy muloqatda bo'lishni istovchi davlatlar va millatlardan o'zbekdarning o'ziga xos muloqot xulqini ham sir tutmaymiz, aksincha o'zbeklar bilan muammo chog'ida nimalar e'tibor berish lozimligini avvalo o'zimizga va boshqalarga o'rgatamiz. Zero, hech bir inson, hech bir millat o'zligini teran anglamasdan turib o'zgani durust tushunib etmagan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek nutqi madaniyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdan bu sohaga "Nutq odobi" nomi ostida ancha keng e'tibor berilgan bo'lib, keyingi asrlarda, ayniqsa, XIX-XX asrlarning ayrim vaqtlarida e'tibor ancha susayganligi ko'zga tashlanadi. Biroq keyingi -yillarda bu sohada ko'p ishlar qilindi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o'qish, o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi., uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilayapti. Lekin shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati etarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilarning yuksak madaniyatli bo'lishlarini belgilaydi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro haytda ikki qarama-qarshi ijtimoiy guruh o'rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tkir va keskin bo'lishini taqozo etadi. Prezidentimiz I.Karimov ham bunga alohida e'tibor berib bunday degan edilar: "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin", "Eng dahshatlisi fikr qaramligi tafakkur qulligi"...

"Maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi, aminmanki o'rgatilmaydi. Mabodo, biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga hech kim xavas qilmaydigan

ahvolga tushib qoladi. Maktabdagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Printsip ham tayyor: mening aytganim - aytgan, deganim - degan”.

“O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. o'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski amalda tajribamizda unga amal qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan tl'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo, bilim o'z yo'liga. Mustaqil ham katta boylikdir” . (Barkamol avlod orzusi. 16-bet.)

Nutq tadbirkorligini singdirish maktabda o'qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg'ulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Shu o'rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maxmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o'tish lozim:

“Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir”.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

- 1.Nutq madaniyati haqidagi tl'limot qadimda qayerda shakllangan?
- 2.G'arb notiqligining yirik vakillari kimlar?
- 3.Notiqlikning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
- 4.Sinegorlar, logograflar nima bilan shuquullanishgan?
- 5.Epideytik notiqlik haqida nima deya olasiz?
- 6.Sharqda nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullangan mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?

3-mavzu: Pedagog nutqi va uning texnikasi

- 1 .Aniqlik nutqning asosiy kommunikativ sifati.
2. Nutqiy madaniyat va o'qituvchi nutqi.
3. Nutqning sofliigi va unga putur etkazuvchi unsurlar.
4. Nutq texnikasi.
5. O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Tayanch iboralar: Sinonimiya, omonimiya, dialog, monolog, paronimiya, metafora, metonimiya, leksikografiya, jargon, vul'garizm, kantselyarizm, ekstrolingvistik, semasiologiya, leksikologiya.

- 1 .Aniqlik nutqning asosiy kommunikativ sifati.

Nutq madaniyatining aloqaviy sifatlaridan hisoblangan mantiqlilik, aniqlik va til'sirchanlik ham, ma'lumki, adabiy til normalariga to'la amal qilish orqali ta'minlanadi. Normaga amal qilmaslik mantiqsizlikni vujudga keltirib qo'yishi, nutqni buzishi mumkin. Masalan, "Kunlar isib ketdi, muzlar eridi" gapini olaylik. Bu gap bog'lovchisiz qo'shma gapdir. Grammatik qurilish to'g'ri, so'zlar o'zaro to'g'ri bog'langan, qo'shma gap qismlari hisoblangan har bir sodda gap orqali ifodalangan fikr ham to'g'ri, umumiy fikr ham mantiqqa mos keladi. Shu gapni "Muzlar eridi, kunlar isib ketdi" shaklida o'zgartirib ko'rilsa, yana har bir gap ifodalagan fikr ham so'zlarning birikishi va to'g'riligicha qolaveradi. Biroq endi mantiq buziladi. Demak, bu qo'shma gap qismlarining o'rinlashish tartibi faqat birinchi holatdagi kabi bo'lishi lozim. Yoki boramiz biz uyimizga tarzida qo'llash adabiy normaga mos emas. o'zbek adabiy tilida eganing oldin, kesimning gap oxirida kelishi grammatik normadir. Shunga ko'ra, bu gapdagi bo'laklar Biz uyimizga boramiz gapidagi kabi joylashishi kerak, aks holda nutq to'g'ri bo'lmaydi, mantiq buziladi, ta'sirchanlik ta'minlanmaydi.

Ko'rinadiki, lisoniy vositalarni yuqoridagi kabi noto'g'ri qo'llash birinchidan nutqni buzsa, ikkinchidan mantiqiylikka, aniqlikka va ta'sirchanlikka ta'sir qiladi. Demak, adabiy til normasining buzilishi, nutq sifatiiy xususiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuning uchun ham nutq madaniyati sohasi tilshunoslik fani bilan - normativ grammatika bilan chambarchas bog'liq holda bo'ladi va unga tayanadi.

2. Nutqiiy madaniyat va o'qituvchi nutqi.

Nutq madaniyatining sifatlaridan biri nutqning boyligidir. Nutqning boyligini tilning lug'at boyligi ta'minlaydi. SHuning uchun ham tilda lug'atlarning o'rni kattadir. U so'zlovchi uchun katta bir xazina bo'lib, notiq ana shu xazinadan bahramand bo'lsagina o'z nutqini boy qila oladi. Ma'lumki, yangi so'zlar, atamalarining hosil qilinishi, o'zlashtirilishi tilshunoslik fanining tekshirish ob'ektidir.

Nutq madaniyati sohasining leksikologiya va semasiologiya sohalari bilan uzviy bog'liqligi hech shubhasizdir. Nutqiiy aniqlik va mantiqiylikni tilning so'z boyligini egallamasdan, har bir so'zning ma'nolarini aniq bilmasdan turib ta'minlash mumkin emas. Jumladan, tildagi sinonimlarni yaxshi bilmasdan turib, tushunchalarni aniq ifodalab bo'lmaydi. Masalan yuz so'zi anglatgan tushuncha bilan bashara so'zi anglatgan tushuncha bir emas: Basharangga odam qarab bo'lmaydi gaplarini olib qaraylik. Bu ikkala gap ma'nosida go'yo farq yo'qdek. Biroq birinchi gapda shaxsning butun gavdasi, ust-boshi ko'zda tutilsa, ikkinchi gapda yuzi ko'zda tutiladi. Demak, yuz va bashara so'zlari o'zaro sinonim bo'lsada, ular anglatayotgan tushunchalar bir-biridan farq qiladi.

Tilning so'z boyligini, uning sinonimlar, antonimlar, qolaversa, omonimlar sistemasini, har bir so'zning o'ziga xos ma'no va grammatik xususiyatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish - nutqning tozaligi, ta'sirchanligi, ifodaliligi, jo'yaliligi, qisqaligi kabi ko'pgina boshqa aloqaviy sifatlarini ham ta'minlaydi. o'zbek tilida mavjud bo'lgan lug'aviy imkoniyatlarni bilmaslik natijasida, masalan, elvizak so'zi urnida skvoznyak yoki tomorqa so'zini bilmaslik natijasida uning o'rnida hovli yoki boshqa so'zni ishlatib qo'yish kabilar o'z-o'zidan nutq tozaligiga putur etkazadi, sinonimlarni bilmaslik nutq ifodaligiga salbiy ta'sir qiladi; jumla tuzishni bilmaslik, grammatik qoidalarni to'g'ri egallamaslik nutq tejamliiligiga zarar qiladi va h.k.

Yuqorida aytganimizdek, Tilning lug'at tarkibini yaxshi bilmasdan turib boy nutqqa erishib bo'lmaydi. Demak, nutq madaniyati ilmiy tarmoq sifatida lug'atshunoslik (leksikografiya) bilan uzviy aloqadordir.

Lug'atlarning xazina ekanligini, nutq malakalarini oshirishda juda katta ahamiyatga

ega ekanligini ko'pgina buyuk olimlar, har xil sohalarining mutaxassislari, yozuvchilar, shoirlar doimo ta'kidlab kelishgan.

S.Akobirovning quyidagi fikri juda ahamiyatlidir: "Fikrni qisqa, aniq va to'g'ri ifodalash uchun eng muvofiq so'z topish kerak bo'lgan hollarda ham lug'atlardan foydalaniladi".

3. Nutqning sofliги va unga putur etkazuvchi unsurlar.

Adabiy til uchun begona usullari bo'lmagan axloq normalari tan olmaydigan so'zlardan xoli bo'lgan nutq sof nutq deyiladi. Ba'zi holatlarda nutq sofliгiga quyidagilar putur etkazib turadi:

A) mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z va so'z birikmalarining talaffuzi, urg'usi;

a) o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari;

b) jargonlar;

v) vulgarizmlar;

g) nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so'zlar;

d) kantselyarizmlar.

Notiq nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'quvchi bilimining, dunyoqarashining omili hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir yangi atamani to'g'ri va yorqin izohlab o'quvchi ongiga singdirib berishi lozim.

Aniqlik ikki xil bo'ladi. Narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsaning aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikni narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko'rinadi.

Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan.

Aniq nutq yaratish so'zlovchidan quyidagilarni o'rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

A) tilning sinonimlik imkoniyatlarini bilish va sinonimlik qatoridan kerakli variantni ajratib nutqda qo'llash;

B) nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish, noijodiy taxminiy qo'llashlardan qochish, chunki betayin so'z qo'llash nutqni beburd qiladi;

V) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

D) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish.

Nutqning mantiqiyliги - nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o'zaro munosabatliligi mantiqiylik deb yuritiladi. Mantiqiy nutqda gaplardagi fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi. Ular orasida ziddiyat bo'lmaydi, mantiqiylik aniqlikka suyanadi. Bunda predmet aniqligi ham tushuncha aniqligi ham mavjud.

Ekstrolingvistik - to'g'ri mulohaza qilishning normalari va printsiplarini egallashni taqozo etadi.

Nutqning ifodaliligi - notiq nutqining muhim shartlaridan biri ifodalilikdir. Ifodalilik nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishini ta'minlaydi. Irodalari sodda, ammo katta mazmunga ega bo'lgan nutq tinglovchilik nuqtai nazaridan qaraganda kishilarning nutqlari xilma xildir. hatto bir mavzuga ba'ishlangan turli kishilarning nutqi

turlicha ifodalanishi mumkin. Bunday nutqlarning biriga tinglovchi qiziqib qarasa, boshqasiga nisbatan loqayd munosabatda bo'ladi. Nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantiqi, dalillarning yangiligi, muallifning ta'sir o'tkazish vositalari, nutqning struktura xususiyatlari muhimdir.

O'xshatish -kabi, singari, day, dek kabi vositalar bilan hosil qilinadi. o'xshatish nutqning turlari uchun ham muhim. Ammo u badiiy nutqda ko'proq uchraydi:

...Okoplardan ov chiqadi

Och bo'riday ulishib.

Metafora - narsalar, hodisalar orasida o'xshashlikka asoslanib bir-biriga xos bo'lgan belgi xususiyatlarini boshqasiga ko'chirishdir.

Sinekdoxa ham nutqning ifodaliligini ta'minlaydi.

Biz ham... quyosh, tuproq vaslidan, qiziydi,
orqada, oldimizda yo'l Go'zal bo'lib ketmish tuproq
aslida,

Urib sochib o'tgach mehnat nomli gul.

Metonimiya - narsalarning zamon va makonda o'zaro bog'lanishlariga asoslanadi.

Faqat Chust do'ppisi ostidan toshgan,

Kumush xalqalardan oqib tushar ter.

(Zulfiya).

"Kumush xalqalar"ning chust do'ppisi ostidan toshib turishi ularning qo'n2iroq soch o'rnida ishlatilganligini anglashga imkon beradilar.

Nutq boyligi - notiq nutqining boyligi (rang-barangligi) de-yilganda unda ishlatiladigan til vositalarining ko'pligi, kam takrorlanganligi, tinglovchiga ko'rsatgan ta'siri tushuniladi.

Nutqning o'rinliliigi - bu nutqning fazilatlarida ichida eng muhimlaridan biridir. Chunki nutqning boshqa fazilatlarida barcha uchun, nutq so'zlanib turgan sharoit uchun o'rinli bo'lsagina o'zini ko'rsata oladi.

Norma va maqsadga muvofiqlik - norma kishining xulqini boshqaruvchisi, yo'naltiruvchisidir. Bunday boshqarish juda zarur, ammo yaxshi nutq uchun bu boshqaruvning o'zi etarli emas. Chunki norma nutqning borliqqa, zarur jamiyatga, ongga, kishilar xulqiga munosabatlariga norma aloqador emas, ularni o'z ichiga olmaydi.

Nutq odobi - insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. o'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli, dastlabki fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq shaxsiy hodisa, Nutqni har bir shaxs o'zi tuzadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi.

Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan notiq tinglovchilarni ovozining shiradorligi bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq o'z ovoz kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish mahoratiga ega bo'lishi darkor. o'z ovozida kamchilik sezgan notiq uni yo'qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va yaxshilash texnikasi bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo'lmaydi. Notiqning ovozida quyidagi xususiyatlar bo'lmoi lozim:

- jarangdorlik;
- keng diapazonlilik;
- xavodorlik;
- ixchamlik;

- chidamlilik;
- moslashuvchanlik;
- qarshi to'liqlarga nisbatan barqarorlik.

3. Nutq texnikasi.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ikki xil ko'rsatish mumkin: .Og'zaki nutq texnikasi; Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi - bunda tovush, bo'2in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi.

Yozma nutq texnikasi - bu nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

A) har qanday yozma nutq xat boshidan bosh harf bilan boshlanadi. har gap mazmunan, nisbatan tugallagan bo'lishi, erkin fikr anglatishi kerak. Gap tugagandan so'ng mazmunga ko'ra tegishli tinish belgisi qo'yiladi;

B) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa bir fikr xat boshidan boshlanishi zarur. Xat boshidan bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim;

V) diologlardan tashkil topgan yozma nutqdan har bir shaxsning gapi tire orqali yoziladi;

G) ko'chirma gaplar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinadi;

D) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar tire yoki qavs bilan ajratiladi;

e) ot, kesim, izohlovchi, undalma ajratilgan bo'laklarga tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

J) nutqning xat boshidan yirik qismlari boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Nutq ma'lum sur'at bilan aytiladi nutq aytilish jarayonida surat oshib yoki pasayib turadi. Bu ifodali so'zlashga xos xususiyat bo'lib, tinglovchi xulqiga ta'sir etishi, nutqning yaxshi etib borishini ta'minlaydi. Sur'at ifodali nutqning ajralmas bo'lagi. Sur'atsiz bir maromda aytilgan nutq lanj, so'lg'il, ta'sirsiz bo'ladi. So'zlashganda ba'zi o'rinlarda sur'atni oshirib borish, jonlantirish, tinglovchilar diqqatini jalb etishdir.

Nutq texnikasi - deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ikki xil ko'rsatish mumkin.

To'xtam - ovozning vaqtincha to'xtashi (dam olishi orqali) bo'lib, bu bir davrda nafas olinadi va nutq a'zolari artikulyatsiyadan to'xtaydi va nutq oqimi uziladi. To'xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko'riladi. To'xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so'ng yangi nafas olish uchun qilingan to'xtalish nafasni rostdash to'xtamida o'pkaga xavo to'ldirib olinadi. Bunday to'xtam radio, televideniya suhandonlari yaxshi foydalanadilar.

5. O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Taniqli notiqlar ham o'z nutqlarining namunali bo'lishini ta'minlashda quyidagi asosli holatlarga alohida e'tibor berganlar:

1 .O'zi to'xtalmoqchi bo'lgan masalaga o'z munosabatini aniq belgilab olish; 2.O'z dunyoqarashiga ega bo'lish, so'z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik

birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

2. Mavzuga mas'uliyat bilan yondoshish, uni omma oldida to'liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

3. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish, jumladan, ma'ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o'ylab olish, masalalarni o'rta tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlash, ma'lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o'zi uchun alohida va keng to'xtalish zarur bo'lgan urinishlarini belilab olish va b.

Nutqning ta'sirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror va adabiy ko'chirmalarning ham o'rni beqiyosdir. quyidagi misollarga e'tibor beraylik: Odam bo'l, otang kabi axmoq bo'lma - Odam bo'l otang kabi, axmoq bo'lma yoki Mulla a'lam to'g'ri, odam emas - Mulla a'lam to'g'ri, odam emas. Bu gaplarda ohangning o'zgarishi gap mazmunining tamomila o'zgarib ketishiga sabab bo'lgan. Bulardan tashqari nutqda ta'sirchanlikni ta'minlash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so'z va iboralar, ayniqsa, frazeologizmlardan keng foydalanish zarur. Yozuvchi Abdulla Qahhor o'z hikoyalarining ko'pchiligida epigraf sifatida maqollar keltirish bilan darhol o'quchini diqqatini tortadi: "Osmon yiroq - er qattiq" ("Bemor"); "Otning o'limi - itning bayrami" ("O'g'ri") kabilar.

Ochiq chehrali odam ikki yuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo'ladi. Ochiq chehralilik, ayniqsa, o'qituvchi uchun zarur fazilatlardandir. Zero, o'quvchilar qalbiga yo'l topish, mehrini qozonish, o'z fanining chinakam ixlosmandi qila olish xazilakam ish emas. Buning uchun, albatta, o'qituvchining keng fe'li-yu saxovatli qalbi o'tkir zehni-yu, tiyrak nigohi muhimdir.

Agar, o'qituvchi o'quvchilarning yuragiga yaqin narsalarni bilolmasa, ularda o'ziga nisbatan iliq hissiyot hosil qilolmasa, ular ko'ngliga yo'l topishi juda qiyin bo'ladi.

Inson xulq-atvorida eng muhim qonun bor, agar biz bu qonunga amal qilsak, hech qachon ko'ngilsiz holatga tushmaymiz. Chunki bu qonun o'quvchilarni ko'proq o'zimizga mo'yil qilishga yordam beradi. Lekin, biz uni ozgina buzishimiz bilan darrov ko'ngilsizlikka uchraymiz. Bu qoida quyidagichadir: o'quvchilar bilan shunday muomilada bo'lingki, ular bu muomiladn o'zlarining ahamiyatliroq ekanini his qilishsin. Boshqalarning ko'z o'ngida ahamiyatli bo'lish xohishi inson tabiatining eng asosiy belgilaridan biridir. Chunki kattalarning o'z suhbat mavzusi bo'lgani kabi, bolalarning ham to'lib-toshib gapiradigan mavzulari bo'ladi. Shuning uchun ko'pni ko'rgan kishilar bolalar bilan bola bo'lib, keksalar bilan keksa bo'lib suhbat qurishga harakat qiladilar. Tajribali o'qituvchilar suhbat chog'ida inson ko'nglini asrashga unga muloyimlik bilan yo'l topishga harakat qiladilar. Biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin o'quvchisini (tinglovchini) suhbat mavzuiga tayyorlab olishga intiladilar. Shunday qilinganda eshituvchi har qanday hayajonli yoki qayg'uli xabarlarini ham ancha engil qabul qiladi va to'g'ri munosabatda bo'ladi. Inson qalbini zabt etish, uning muhabbatini qozonish uchun ko'p narsa kerak emas, shirin so'z, samimiy muomala kifoya.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at. Lekin bu san'atdan bebahra insonlar ham hayotimizda uchrab turadi. Bu san'atdan, boshqa kasb egalaridan farqli o'laroq o'qituvchi bebahra bo'lsachi? Bu aslo kechirib bo'lmas xoldir. "Qaysi fanni o'qitishdan qat'i nazar, o'qituvchining asosiy quroli, ta'bir joiz bo'lsa, ketmoni uning nutqidir. Ketmon o'tkir bo'lmasa, urning ham, ketmonchining ham xoliga

maymunlar yig'laydi. Xuddi shunday, o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. o'qituvchi go'zal, o'zini ham, so'zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir". ("Ma'rifat manzillari" N.Maxmudov, 28-bet).

Nutq odobi - insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. o'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli, dastlabki fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq shaxsiy hodisa, Nutqni har bir shaxs o'zi tuzadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi.

Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan notiq tinglovchilarni ovozining shiradorligi bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq o'z ovoz kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo'lganda undan foydalana bilish mahoratiga ega bo'lishi darkor. o'z ovozida kamchilik sezgan notiq uni yo'qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va yaxshilash texnikasi bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo'lmaydi. Notiqning ovozida quyidagi xususiyatlar bo'lmog'i lozim:

- jarangdorlik
- keng diapazonlilik;
- xavodorlik;
- ixchamlik;
- chidamlilik;
- moslashuvchanlik;
- qarshi to'liqlarga nisbatan barqarorlik.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga etkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganidan uning texnikasini ikki xil ko'rsatish mumkin:

- 1 .Og'zaki nutq texnikasi;
- 2.Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi - bunda tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi.

Yozma nutq texnikasi - bu nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

A) har qanday yozma nutq xat boshidan bosh harf bilan boshlanadi. har gap mazmunan, nisbatan tugallagan bo'lishi, erkin fikr anglatishi kerak. Gap tugagandan so'ng mazmunga ko'ra tegishli tinish belgisi qo'yiladi;

A) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa bir fikr xat boshidan boshlanishi zarur. Xat boshidan bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim;

V) diologlardan tashkil topgan yozma nutqdan har bir shaxsning gapi tire orqali yoziladi;

G) ko'chirma gaplar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinad

D) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar tire yoki qavs bilan ajratiladi;

e) ot, kesim, izohlovchi, undalma ajratilgan bo‘laklarga tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

J) nutqning xat boshidan yirik qismlari boblarga bo‘lib ko‘rsatiladi.

Nutq ma’lum sur’at bilan aytiladi nutq aytilish jarayonida surat oshib yoki pasayib turadi. Bu ifodali so‘zlashga xos xususiyat bo‘lib, tinglovchi xulqiga ta’sir etishi, nutqning yaxshi etib borishini ta’minlaydi. Sur’at ifodali nutqning ajralmas bo‘lagi. Sur’atsiz bir maromda aytilgan nutq lanj, so‘lg’il, ta’sirsiz bo‘ladi. So‘zlashganda ba’zi o‘rinlarda sur’atni oshirib borish, jonlantirish, tinglovchilar diqqatini jalb etishdir.

Nutq texnikasi - deyilganda nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga etkazishda qo‘llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lganidan uning texnikasini ikki xil ko‘rsatish mumkin.

To‘xtam - ovozning vaqtincha to‘xtashi (dam olishi orqali) bo‘lib, bu bir davrda nafas olinadi va nutq a’zolari artikulyatsiyadan to‘xtaydi va nutq oqimi uziladi. To‘xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko‘riladi. To‘xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so‘ng yangi nafas olish uchun qilingan to‘xtalish nafasni rostlash to‘xtamida o‘pkaga xavo to‘ldirib olinadi. Bunday to‘xtam radio, televideniya suhandonlari yaxshi foydalanadilar.

Nazorat va mulohaza uchun savollar

- 1 .Aniqlik nima Uning kommunikativ sifatlari haqida aytib bering.
- 2.Sinonimiya, omonimiya va paronimiya nima?
- 2 .Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
- 4.Nutqning sofliqiga putur etkazuvchi unsurlar nima?
- 5.Nutq texnikasi nima? Uning qanday turlari bor?

4-MAVZU: NUTQNING USLUBIY TURLARI

Rej a :

1. Sharq va Markaziy Osiyo notiqligiga xos usullar.
2. Pedagog nutqining asosiy xususiyatlari:
 - A) nutqning to‘g‘riligi;
 - B) nutqning aniqligi;
 - V) nutqning mantiqiyligi;
 - G) nutqning ta’sirchanligi;
 - D) nutqning tozaligi;
3. Nutq texnikasi xaqida ma’lumot.
4. Pauzaning nutqdagi o‘rni va roli.
5. Nutq a’zolari va ularning vazifalari.

*Tayanch iboralar:*Notiqlik madaniyati, voizlik, va’z, nutq to‘g‘riligi, aniqligi, mimika, pantomima, pauza, oxang, ovoz jarangdorligi, nafas axamiyati, jest va formalistik talqin nazariyachilari, tashqi qiyofa, nutq a’zolari.

1. Sharqda nutq madaniyatining shakllanishi qadim zamonlardan boshlab rivojlangan. Usha davrda notiqlik san’ati voizlik deb xam yuritilgan. Shunga ko‘ra nutq va’z deb, notiq voiz deb yuritilgan.

Qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma»da xam nutq odobi va madaniyati xaqida ibratomuz gaplar aytilgan bo'lib, ular xozir ma'lum darajada axamiyatini yo'qotmagan. Bu asarning 6-7 boblarida so'z odobi xaqida fikrlar yuritilgan. Kaykovus notiq so'zining ma'nolarini xar tomonlama o'rgangan bo'lishi kerak, deb xisoblaydi.

So'zning qadri, undan foydalanish, kam so'zlab ko'p ma'no anglatish, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiylar xam ibratli fikr bildirganlar. Yusuf Xos Xojib o'zining mashxur «Qutadg'u bilig» asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va qo'llash xaqida «Bilib so'zlasa, so'z bilig sanalur», - deydi. Adib Axmad Yugnakiy xam so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlashga chaqiradi. Noto'g'ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin deb so'zlovchini ogoxlantiradi. («Xibat-ul xaqoyiq», 78-bet).

2. Nutq so'zlovchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina inosniyat xodisasi sanaladigan, balki xam ruxiyat, xam nafosat xodisasi xisoblanadi. Shuning uchun xam yaxshi nutq deyishganda aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchiga to'liq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi narda tutiladi. Shunga ko'ra, nutq oldiga muxim talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiqiy jixatdan aniq, chiroyli, maqsadga muvofiq bo'lishidir.

Nutq ma'lum shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Bunda joy, vaqt, mavzu va aloqa jarayonining maqsadi kabi omillar xam axamiyatlidir. Shunday qilib, nutqning aloqaviy sifati deganda quyidagi xolatlarni nazarda tutish lozim bo'ladi:

Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'ri bo'lishi - bu uning bosh aloqaviy sifati sanaladi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning so'zlovchi yoki tinglovchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq xam, maqsadga muvofiq xam, mantiqiy xam bo'lmaydi.

«To'g'rilik deganda - nutq madaniyatining zarur va birinchi shart sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy lug'at va grammatik normalarini egallashini tushunish lozim bo'ladi. Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi eng avvalo, uning adabiy til normalariga muvofiq kelishidir.

Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga - urg'u va grammatik normatik normaga qattiq amal qilishni taqozo etadi.

Institut- institutlar -institutlarning

YAngi (xozir) - yangi (endigina)

Mantiqiy urg'u xam ma'no farqlashda xizmat qiladi.

Men kitob o'qidim. Men kitob o'qidim. Men kitob o'qidim

Onasiz bola o'ynamas - onasi yonida bo'lmagan bola o'ynamaydi.

Onasiz bola o'ynamas - onasi yo'q bola o'ynamaydi.

A.S. Makarenko shunday deydi: «Men «*beri kel*» so'zini 15-20 xil turda gapirishga o'rganib olganimdan keyingina xaqiqiy maxorategasi bo'lib qoldim va o'shandan keyin biror kimsaning menga yaqinlashmasligidan yoki kerakli narsani sezmay qolishligidan cho'chimaydigan bo'ldim.»

Nutqning aniqligi. Aniqlik xam nutqning asosiy sifatlaridan bo'lib, yaxshi

nutqning shakllanish sharoitlaridan biridir. Agar to'g'ri nutqning yuzaga kelishida faqat lisoniy faktor zaruriy belgi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda, uning shakllanishiga xizmat qiluvchi tildan tashqarida bo'lgan xolatlarni xam nazarda tutish lozim bo'ladi. Bu eng avvalo, til va tafakkur dialektikasidir. Chunki, aniqlik deyilganda, tabiat va jamiyatdagi narsa va xodisalar bilan ularning nutqdagi aiamasi bo'lgan material o'rtasidagi munosab tushuniladi.

Aniqlikni «nutq-voqelik» va «nutq-tafakkur» munosabati asosida belgilash mumkin.

Aniqlik - bu so'zning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. «Aniqlikni boshqacha tushunish xam mumkinki, bu so'z va uning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'nosi xamda uning nutqda qo'llanishi bilan muvofiq kelishidir.» Ko'rinadiki, aniqlik nutqning xususiyati sifatida eng avvalo til sistemasidagi lug'aviy daraja bilan bog'lanadi. Boshqacha qilibaytganda, nutq aniqligi atamasi ostida voqelik va uning tildagi ifodasi bo'lgan lug'aviy birlik - so'z o'rtasidagi o'zaro moyillik aniqlaniladi.

A.Qaxxor til maxorati xaqida: «Ma'rufov Xakimning «Qaxramonning o'limi» xikoyasida «... Botir beliga qator beshta **bomba** qistirib», «Qo'lida **bomba** ushlagan xolda ko'chaga yugurdi» jumllaridagi «bomba» va «granata» so'zini noto'g'ri qo'llaganini» e'tirof etadi. Fikrini davom ettirib «... Sulton akaning oyoqlarini silaganda qo'liga yelimga o'xshagan bir narsa yopishganligini sezdi: **qorong'ida** nima ekanini bilolmay qoldi. Shu yerning o'zida «..... Jenya yigitning ko'ziga uzoq tikilib qoldi.». Qo'lga tekkan qon ko'rinmagan **qorong'ida ko'z ko'rinadimi?!».**

Aniqlikni vazifaviy doirasida tushunish xam o'ziga xos. U so'zlashuv uslubida vaziyatga bog'liq buladi. Rasmiy ish qog'ozlari uslubida esa, aniqlik tilidagi tayyor qolip - so'z va iboralaridan foydalanishni taqozo etadi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o'rin tutadi. Publitsistik va badiiy nutq uslubida esa, so'z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining masalasi va g'oyaviy maqsadiga mos kelishi va shunga xizmat qilishi kerak.

Nutqning mantiqiyligi. Uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jixatdan to'g'ri tuzilmagan nutq xam, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik xam mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir.

*Davron aka uni qo'yarda qo'ymay **choyga o'tqazdi.***

*Bugun Toshkentda **nol daraja issiq bo'ladi.***

Nutqning mantiqiyligi deyilganda yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivojig izchil bo'lgan, xar bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutq tushuniladi.

Nutqning tozaligi. deganda, uning adabiy tilning lisoniy, tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi. Darxaqiqat, yaxshi, ideal, nutq xozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos xolda tuzilgan bo'lishi turli xil g'ayri adabiy til usullaridan xoli bo'lishi kerak.

Nutqning tozaligi, uning keraksiz so'z va iboralardan xoli bo'lishi, so'zlovchi va

tinglovchi uchun xam, yozuvchi va o'kuvchi uchun xam suv va xavodek zarurdir. Til vositalari vaziyati va sharoitiga qarab ishlatilgan, xech qanday siyqa so'z va iborasiz xosil qilingan notiqqina tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'kuvchi qalbiga borib yetadi.

Qo'pol so'zlarning ishlatilishi xam nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladi. Og'zaki nutqda ba'zan uchrab turadigan so'kinish, xaqorat so'zlari jamiyatning axloq normalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan xodisadir. Ammo badiiy adabiyotda personajlarning kuchli xayajonli g'azablanganligini ifoda etish maqsadida dag'al so'zlardan foydalaniladi.

Tilning tozaligi, ma'no aniqligi va o'tkirligi uchun kurash madaniyat quroli uchun kurashishdir. Bu qurol qanchalik o'tkir, qanchalik aniq yo'naltirilgan bo'lsa, u shunchalik g'olib bo'ladi. Notiq o'z o'stida tinimsiz ishlashi bilan birga nutq jarayonida doimo uni nazorat qilib borsagina, tilga ma'suliyat bilan yondoshsagina nutqning tozaligiga erisha oladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosiy og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilishdagi ruxiy vaziyatni e'tiborga olish xam muximdir.

Ta'sirchan nutq deb, nutq qurilishning tinglovchi va o'quvchi e'tibori va qiziqishini qozonadigan xususiyatlariga ega bo'lgan nutq ta'sirchan sanaladi.

Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish natijalar oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan xisoblanadi. Buning uchun esa mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak.

Nutqning tinglovchiga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishda, notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari xatto kiyinishi kabi omillarning xam roli bor. Samimiylik, odoblilik, tinglovchilarga xurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning kishilar tomonidan e'tibor bilan tinglashishga sabab bo'ladi.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi grammatik jixatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi boshdan oyoq izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutqqina tinglovchi va o'kuvchi qalbigaborib yetadi. Buning uchun esa, yozuvchidan va omma oldida nutq so'zlovchi kishidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilish va mutasil nutqiy mashq talab qilinadi.

3. Nutq texnikasi iqtisodchi-pedagogning asosiy ta'sirchan nutqning vositasi sanaladi.

Texnika - usullar yig'indisi. Uning vositasi nutq va muomalaning noverbal vositalari xisoblanadi. Pedagogik texnika tushunchasiga 2 xil gruppaga komponentlari kiradi.

Birinchi gruppaga komponentlari o'qituvchi o'zining xulqini boshqarishi bilan bog'liq: emotsiyani (xis-tuyg'uni), kayfiyatni boshqarish (psixik nagruzka-ijodiy kayfiyat), o'z tanasini boshqarish (mimika, pantomima). Ijtimoiy, portseptiv qobiliyatlar, e'tibor, kuzatuvchanlik, diktsiya, nutq tempi.

Ikkinchi gruppaga komponentlari shaxs va jamoaga ta'sir etish bilan bog'liq bo'lib, didaktik va tarbiyaviy jarayonlar texnologik tomonlarini ochishga yordam

beradi. Didaktik tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, ko'nikmalarni ko'rsatish bilan bog'liq, talab etishning texnologik usullari, pedagogik muomalani boshqarish jamoat ijodiy ishlarini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'ladi.

Ayrim tadqiqotchi pedagoglarning olib borgan izlanishlari yangi ish boshlagan o'qituvchilarda uchraydigan tipik xatolarni ochib beradi. Avvalo, bunday xatolar yangi ish boshlayotgan o'qituvchilarda, bolalar, ularning ota-onalari bilan suxbatda achchig'i chiqqanini bildirish yoki bildirmaslik, o'zini qay vaqtda bosiq tutishni bilmaslik bilan xarakterlanadi. Pedagogik amaliyot davrida yozgan kundaliklarida, bevosita suxbat davomida, talaba o'zlarining nutqi yaxshi emasligini bolalar bilan muloqotda ortiqcha qattiqqo'llik yoki ortiqcha yumshoqko'ngillik qilgani, tez gapirib yuborayotgani, o'z o'zidan qo'rqish, o'rinsiz doska oldida turib qolish, yurish, o'tirish, turish me'yorini, qo'llari og'irlashib, uni qaerga qo'yishni bilmasligini aytishib, bu borada maslaxat berishni so'raydilar. Talaba gavdasini, qo'l xarakatlarini, boshni tutishidagi nomuvofiqlik, uni bartaraf etish yuzasidan nimalar qilish kerakligini bilgisi keladi.

Ovozini boshqarishdagi monotonlik, nutqning xissiz, ma'nosizligi kabi kamchiliklar aytib o'tiladi. Bu kabi kamchiliklar o'qituvchining o'kuvchiga samarali ta'sir ko'rsatishiga xalaqit beradi. Bo'lg'usi iqtisodchi-pedagogning o'zini boshqarishdagi bu va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish pedagog mutaxassislar tayyorlash sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan jiddiy masalalardan biri xisoblanadi.

Iqtisodchi-pedagogning tashqi qiyofasi.

Emotsional xolatlarni boshqarish. Quyidagi savollarga «xa» yoki «yo'q» deb javob bering.

1. Siz doimo xotirjam va o'ziningizni bosiq tuta olasizmi?
2. Kayfiyatingiz?
3. Uyda va o'qishda doimo e'tiborli va yig'inchoqmisiz?
4. Xis-tuyg'ularingizni boshqara olasizmi?
5. O'rtoqlaringiz va yaqinlaringiz bilan doimo xam e'tiborli va samimiymisiz?
6. Materialni ongli o'zlashtirasizmi?
7. Yomon, be'mani odatlaringiz bormi va ulardan qutulishni xoxlaysizmi?
8. Qaysi xolatlarda o'z xulqingiz, xatti-xarakatingizdan norozi bo'lgansiz?

Agar siz barcha savollarga faqat «xa» deb javob bergan bo'lsangiz bu sizning o'ta xotirjamligingizdan, o'zingizni boshqara olishingizdan, ortiqcha tashvish yo'qligidan yoki o'zingizga ortiqcha baxo berib yuborganingizdan deb xisoblasa bo'ladi. Agar javoblar salbiy bo'lsa, u xolda tashvishli, ishonchsizlikdan, o'zingizdan qoniqmaslik, o'zingizga tanqidiy qarayotganingizdan dalolat beradi. Agar «xa» va «yo'q» javoblari aralash bo'lsa, u xolda o'zingizga tanqidiy qarayotganingizni, kamchiliklaringizni ko'ra olishdan dalolat beradi. Buni o'zingizni tarbiyalashda dastlabki qadam deb xisoblash mumkin. O'z-o'zingizni boshqarish usullaridan eng muximlari:

A) samimiylilik va kelajakka ishonch;

B) o'z xulqini nazorat qilib turish (mushak xolatlarini, xarakat tezligini, nutq,

nafas olishni boshqarish).

V) faoliyatda o'zgarish yasash (mexnat terapiyasi, musiqa terapiyasi, kitob terapiya, qiroatxonlik, yumor, turli o'yinlar).

G) pantomima - tana, qo'l va oyoq xarakatlari orqali mazmun berish, bulardan eng muximimni ajratib olish, obrazni chizib ko'rsatishdir.

D) mimika - o'z fikri, xis-tuyg'usini, kayfiyatini ifodalay olish san'ati xisoblanib, yuz muskullari xarakati orqali ma'no ifodalash demakdir.

Iqtisodchi-pedagogning yuzidan fikrni uqib olish asosiy maqsad bo'libgina qolmasdan, iqtisodchi-pedagog o'z fikrini nafaqat bera olishi, balki uni yashira olish ko'nikmasiga xamega bo'lishi kerakligini xisobga olish zarur.

Nutq texnikasi. O'quvchilar tomonidan nutqni qabul qilish va tushunish, o'qitish jarayonida eshitishning murakkab tomonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'nga asosiy o'quv soatining qismi 1G'4 dan 1G'2 gacha qismi sarf bo'ladi. Shuning uchun bu o'rinda iqtisodchi-pedagogning yetuk nutqi katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun bir qator katta mashqlarni amalga oshirish zarur.

Nafas olish fiziologik jarayon xisoblanib, u organizmning xayot faoliyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga nutqning quvvat zaxirasini xam bajaradi. Nutqiy nafas olish - **fonatsion** deb xam ataladi. (grekcha phono - tovush).

Mashq qilinmagan nafas olish pulsning o'zgarishiga, yuz qizarib ketishiga, nafas tiqilib qolishiga, bosim ortib ketishiga sababchi bo'ladi.

Iqtisodchi-pedagog ovozinig o'ziga xosligi:

A) *tovush kuchi tovush apparatlari ishining faolligiga bog'liq;*

B) *tovushning eshituvchanlik xususiyati uning uzilish xolati bilan bog'liq.* Iqtisodchi-pedagog o'z tovushini qanday masofaga yubora olishi va baland tovushni boshqara olishi bilan xam xarakterlanadi.

V) *tovushlarning ixchamligi*, xarakatchanligi uni tez, mazmunga va eshituvchilarga moslab o'zgartira olishda namoyon bo'ladi.

G) *diapozon* (tovush xajmi) eng baland va eng past tovush chegarasi.

D) *tembr* - tovush rang-barangligi, tiniqligi, uning yumshoqligi, iliqligi, o'ziga xosligida ko'rinadi.

Diktsiya - so'z, gap, bo'g'in, tovushlarni aniq, yorqin, tiniq ifodalay olishda ko'rinadi. Bu nutq apparatlari: lab, til, kichik til, tanglay, bo'g'in, tovushlar uzviy bog'liqligi, muskul, bosh suyak apparatlari faoliti bilan bog'liq jarayon xisoblanadi.

Eng ko'p va eng faol nutqda: til, lab, tanglay, kichik til, jag'larni doimo mashq qildirib turish kerak.

Ritmika - ayrim so'zlar butun va uzoq vaqt jaranglashi, pauza nutqning erkinligini temporitm deyiladi.

Nutq tezligi iqtisodchi pedagogning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Eng ma'qul qulay temp bu bir minutda 120 ta so'z ayta olish. Lekin, tajriba shuni ko'rsatadiki 5-6 sinflarda o'qituvchilar 1 minutda 60 ta, 10-11 sinflarda 1 minutda 75 ta so'z ishlatishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat uchun savollar :

1. Sharq mutafakkirlarining notiqlik san'ati xaqidagi fikrlari xaqida nimalarni bilasiz?
2. Iqtisodchi-pedagogning nutqi qanday bo'lishi kerak?
3. Nutqning asosiy xususiyatlari xaqida nimalarni bilib oldingiz
4. Nutq texnikasi deganda nimalarni tushunasiz?
5. Nutq madaniyatida ovozning ahamiyati qanday?
6. Diksiya deb nimaga aytiladi?
7. Mimika va pantomimaning xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Pauzaning nutqdagi o'rni nimalardan iborat?

Adabiyotlar :

1. S.Inomxo'jaev. Notiqlik san'ati asoslari. T.1982. 174 bet
2. R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, YO.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.1992. 83-85 betlar.

5-Mavzu: TILNING TASVIRIY VOSITALARI

Reja :

1. Ifoda tasviriy vositalari va ularning nutqda tutgan o'rni.
2. Ifoda tasviriy vositalarining turlari.
3. Xozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari.

Tayanch iboralar: Tasviriy vositalar, troplar, metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, mubolag'a, kinoya, allegoriya, jonlantirish, takror, metateza, ritorik savol, leksik-semantik me'yor, fonetik buyoq, semantik-uslubiy me'yor.

1. So'zlovchi o'zi bayon kilayotgan fikrni tinglovchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga xarakat qiladi. Ko'pincha biror narsa belgi, xususiyatini tinglovchiga tushunarli qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. SHunday vaqtlarda so'zlovchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda fikrni ifodalash uchun boshqa vositalardan unumli foydalangan xolda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga erishadi. Bunday vositalar **ifoda-tasviriy vositalar** deyiladi.

Maxsus ifoda-tasviriy vositalar **troplar** va **figuralar** deb ikkiga bo'linadi. Maxsus ifoda-tasviriy vositalari tilda obrazlilik, xissiylik keltirib chiqaradi. Ulardan foydalanish orqali tinglovchining sezgisiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari bayonda qisqalikka, aniklilikka erishiladi. Buning uchun ma'lum shart-sharoitlar kerak bo'ladi:

1. Notiq ifoda tasviriy vositalarining tabiatini, xususiyatini yaxshi tushungan, bilgan bo'lishi kerak;
2. Ifoda tasviriy vositalarga, nutqni bo'yash, ko'r-ko'rona, xaddan tashqari ko'p, o'rinli-o'rinsiz murojaat qila bermaslik kerak.

Ya'ni ularning ishlatish o'rni, payti, vazifasini yaxshi tushunish kerak. Aks xolda nutq madaniyati buziladi, tinglovchida o'sha nutqqa, u orqali so'zlovchiga nisbatan salbiy munosabat uyg'onadi.

2. Ifodalalik, ekspressivlik va aniqlilikni ta'minlash niyatida biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish, o'xshatish yoki so'zlarni shu maqsadda umuman ko'chma ma'noda ishlatish **troplar** deyiladi.

Trop nutqda so'z va iboralarni ko'chma ma'noda ishlatishdir. Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyos qilish troplarga asos qilib olinadi.

Metafora - grekcha so'z bo'lib, *ko'chish* degan ma'noni bildiradi.

Metafora tuzilishiga ko'ra ikki xil buladi: sodda va kengaygan. Sodda metafora birgina so'zdan tashkil topsa, kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq so'zlardan tuziladi. Masalan, **gumbaz** (*osmon ma'nosida*), **ilon** (*sovuq odam*) - sodda metafora sanaladi. **Po'lat ot, zangori kema, oq oltin** - kengaygan metaforadir.

Metonimiya - grekcha so'z bo'lib, *boshqacha nom berish* degan ma'noni bildiradi. Tashqi va ichki tomondan ma'nosi bir-biriga aloqador narsa yoki xodisaning nomi boshqa narsaga ko'chadi.

Metonimiyaning turlicha ko'rinishlari mavjud:

1. Narsa ichidagi narsaning ma'nosi o'sha narsaga o'tkaziladi: Masalan: *bir tovoq palov yedim deyish o'rniga* **bir tovoqni tushirdim**.

2. Muallif nomi asarning nomi bilan qo'llaniladi: **Navoiyni o'qidim**.

3. Xarakat yoki uning natijasi shu xarakatni bajarishdagi qurol, vosita bilan almashtiriladi: **Bu so'zlar ustozning qalamiga mansub**.

Sinekdoxa - narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi. **Samovarga boramiz, eshikka o'taylik, tirnoqqa zor**.

Allegoriya - grekcha so'z bo'lib, *kinoya, qochiriK, kesatish* ma'nolarini anglatadi. Bunda aniq tushunchalar mavxum tushuncha bilan almashtiriladi. Masalan: **tulki-ayyor odam, bo'ri- ochko'z kishi, kabutar- tinchlik ramzi. Ko'rpangga qarab, oyoq uzat**.

Mubolag'a - orttirib, bo'rttirib ko'rsatish, maxovat qilish ma'nosini bildiradi. **Odam tushmas uning aytgan tiliga, Besh yuz quloch arqon yetmas beliga**. (Alpomish). **Qiz kelishi bilan xamma yok charaqlab ketdi**.

Jonlantirish - jonsiz narsalarni inson kabi xarakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash.

«Toshbaqa bilan chayon» masalida *mexribon, raxmdil kishi (toshbaqa), yaxshilikka yomonlik qiladigan kishi (chayon)* obrazlari orqali ifodalanadi.

Takror - so'z ma'nolariga e'tiborni kuchaytirish va xissiyotni quzg'atishga xizmat qiladi.

Ko'm-ko'k,

ko'm-ko'k...

Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar

Po'lat yag'rinlarni ko'targan yerlar

Ko'm-ko'k,

Ko'm-ko'k.

Naxotki, *shu gaplarni sen aytgan bo'lsang*, **naxot!**

Ritorik so'roq - tinglovchining diqqatini mavzuga jalb qilish uchun ishlatiladigan, javobtalab qilmaydigan so'roq turi. Masalan, **bolani kim sevmaydi?**

3. Til normasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish o'zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazorat jixatdan asoslashning muxim shartlaridan biridir. Chunki til normasi - nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir.

Xo'sh, norma nima? Norma - so'zning ma'lum paytda, ma'lum jamoada ob'ektiv mavjud bo'lgan ma'nosi, uning fonetik tuzilishidir. So'z yasash va so'z o'zgartirish qoliplari xamda ularning real ko'rinishlari, sintaktik birikmalar - so'z birikmalari, gaplarning real ko'rinishlaridir.

S.I.Ojegovning fikricha, «Norma - bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini (lug'aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali til vositalari yig'indisidir, keng ma'noda bu unsurlarni baxolashdir».

B.N.Golovin: «Norma - bu til birikmalarini o'zaro yaxshi tushunish zaruriyati tufayli, undan foydalanadigan xalq tomonidan yaratilgan, til ko'rinishining amalda bo'lgan xususiyatidir. Aynan mana shu zaruriyat til sistemasining yagonaligiga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan voz kechish istagini tug'diradi».

Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til normasi milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib boradi.

Demak, norma deganda til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka ma'qul bo'lgan variantini qo'llash tushuniladi. Shuning uchun xam norma tushunchasi til ko'rinishi, umuman til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, tilda turg'unlik kasb etadi va uzoq muddat yashaydi. Davr o'zgarishi bilan odamlarning bilimi, dunyoqarashi, xayotga bo'lgan talabio'zgarishi bilan norma xam o'zgarishi mumkin.

Masalan, 1917 yillarda muxtoriyat, jumxuriyat, baynalminal, yo'qsil, firqa, kashshof kabi so'zlarni ishlatish norma xisoblangan bo'lsa, keyinchalik ular iste'moldan chiqdi. Ularning o'rniga avtonomiya, respublika, internatsional kabi ruscha baynalminal so'zlar qo'llaniladigan bo'ldi. Xozirda avvalgi atamalar tilimizda yanada qaytib kirmoqda.

Yana bir misol: «Domla» so'zi 1917 yildagi ilgari diniy maktab (madrasa) larda mudarrislik qiluvchi kishilarga nisbatan ishlatilgan. Xozir esa bu so'z butunlay boshqa ma'noda, ya'ni oliy maktablarningsh o'qituvchilariga nisbatan aytilmoqda. Unda xech qanday yomon ma'no yo'q, ma'noda siljish yuz bergan va shunday ishlatilishi xalq tomonidan norma sifatida qabul qilingan.

Normani tadqiq etishda shu narsani qattiq yodda tutish kerakki, tilning taraqqiyot qonunlari ob'ektiv jarayonning irodasiga bog'liq bo'lmagan xolda amal qiladi. Norma xodisasi – tilning barcha yashash shakllar uchun xosdir.

Endi o'zbek adabiy tilining aniq normalari xaqida muloxaza yuritamiz.

O'zbek adabiy til normalari:

- 1) Leksik-semantik (so'z qo'llash) normalar;
- 2) Talaffuz (orfoepik) normalar;
- 3) Aktsentologik (so'z va formalarda urg'uning to'g'riligi) normalar;
- 4) Fonetik normalar;
- 5) Grammatik (morfologik va sintaktik) normalar;

- 6) Soʻz yasash normalar;
- 7) Imloviy normalar;
- 8) Yozuv (grafika) normalar;
- 9) Punktatsion normalar;
- 10) Uslubiy normalar.

Fonetik norma. Xozirgi oʻzbek adabiy tili uchun 6 ta unli va 25 ta undosh tovushning qoʻllanishi norma xisoblanadi.

Talaffuz norma. Adabiy tilning ogʻzaki va yozma shakli boʻlgani kabi, nutqda xam imloviy xamda talaffuz normalari mavjuddir. Talaffuz normalari til birliklarining ogʻzaki nutq jarayonida adabiy til normasiga muvofiq kelishidir.

Imloviy norma, yaʼni, yozuv normasi adabiy tilning madaniylik darajasini belgilovchi asosiy mezondir. Imloviy norma talaffuz normasidan farqli oʻlaroq stixiyali ravishda shakllanmasdan til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan xolda yuzaga keltiriladi va uning amal qilinishi maxsus imlo qoidalari orqali yoʻlga quyiladi. Maʼlum norma sifatida tavsiya etilgan til unsurlaridan foydalanish millat vakillari uchun majburiy sanaladi.

Lugʻaviy norma. Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqibsoʻz tanlash imkoniyatlari uning leksik normasini belgilaydi.

Umumxalq tilidan oʻsib chiqqan adabiy til unda mavjud boʻlgan soʻz variantlaridan lugʻaviy norma sifatida eng maʼqulini, xamma uchun tushunarli boʻlgan koʻrinishini tanlab oladi, qolgan variantlar esa sheva va laxjalarda, ijtimoiy guruxlar tilida yashayveradi. Xar bir shevada, oʻsha sheva uchun soʻz qoʻllashning oʻz lugʻaviy normasi bor.

Oʻzbek adabiy tilining lugʻaviy normasi imlo lugʻatlarida oʻz ifodasini topgan.

Xullas, norma tilning ijtimoiy vazifa bajarishining asosiy sharti boʻlib, unga amal qilish shu tida soʻzlashuvchi va yozuvchilar uchun majburiydir. oʻzbek tilining qanchalik normaga keltirilganligi va unga qanchalik amal qilinishi umummilliy oʻzbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ifoda-tasviriy vositalar deb nimaga aytiladi?
2. Troplar deb nimaga aytiladi?
3. Ifoda-tasviriy vositalarning turlari xaqida nimalar bilasiz?
4. Xozirgi oʻzbek adabiy tiling meʼyorlari deganda nimani tushunasiz?
5. Fonetik meʼyor nima?
6. Imlovi va lugʻaviy meʼyorlar xaqida gapiring.
7. Grammatik meʼyorlarni taxlil qiling.
8. Adabiyo meʼorning amaliy axamiyati nimalardan iborat?

Adabiyotlar :

1. R.Qoʻngʻurov,E.Begmatov, YO.Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubi asoslari. T.1992. 97-109 betlar.
2. O.Xakimova. Mantiq va nutq madaniyati T. 2002. 43 bet.

3. Adabiyotshunoslik atamaları lug'ati. T.2000.

7-MAVZU: O'QITUVCHI NUTQ ODOBI VA USLUBI

REJA

1. Nutq odob.
2. Ovozdan foydalanish.
3. Nutq texnikasi.

Ma'ruza bo'yicha aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari. Talaba bu ma'ruzani puxta o'zlashtirganidan so'ng:

- Pedagogda nutq odobi axloqiy darajasini yuqoriligi;
- Pedagog ovozidan foydalanishida uzluksiz mashq qilishi;
- Og'zaki nutq texnikasida tovushlarni talaffuz etishni yaxshilash;
- Yozma nutq texnikasida ish qog'ozlariga xos bo'lgan texnik xususiyatlardan foydalanish;

1. Nutq odobi

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. O'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimiy turkiy yodnomalarida, buyuk allomalarimizning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha yetib kelgan.

Aхлоq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Bu fanning o'z olimlari paydo bo'ldi, nazariyasi yaratildi. Ibn Musnaveyx, Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Sabzavoriy, /iyosiddin Mansur kabilar ahloq fanining mavzui, vazifalari, maqsadini nazariy va amaliy asoslab berdilar. Afsuski, ko'p yillar davomida be merosni o'rganish, ommalashtirishga imkon bo'lmadi. Juda ko'p yirik olimlarimiz hamon xalq uchun noma'lum bo'lib kelmoqda. Aslida esa deyarli hamma davrlarda bu fan tarqqiy etib bordi, yangi-yangi asarlar paydo bo'ldi; ahloq va ta'lim-tarbiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan juda ko'p olimlar yetishib chiqdi. Qator mutaxassislarning asarlari asossiz ravishda o'rganilmay kelindi.

Kishining odobi eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini xurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, obodli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. Talaba uchun eng yaxshi namuna bu o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-ahloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim.

Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi. Tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra,

«Assalomu alaykum» ning javobi «Vaalaykum assalom» dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham to‘mtqlashib ketdi, ya’ni salom berish uchun ham, alik olish uchun ham «salom» so‘zi ishlatiladigan bo‘ldi. Bu tarixiy an‘analarimizdan chetlashishdir.

Madaniyatli kishi o‘z aybini bo‘yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so‘rashni ham bilishi zarur. O‘z aybi uchun kechirim so‘rash, o‘z g‘ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. «Kechirasiz, mendan o‘tibdi» yoki «Avf eting, bundan so‘ng takrorlanmaydi» deyish bilan kishi o‘zining odobliligini namoyish etadi, xolos.

Etuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashishda ishlatiladigan «Xayr, sog’ bo‘ling», «Xayr, ko‘rishguncha», «Xayr, omonlikda ko‘rishaylik» kabi ta’sirchan iboralar mavjud. O‘qituvchi sinfdan chiqayotganda «Xayr, sog’ bo‘linglar», «Xayr, yaxshi qolinglar» iborasini ishlatib, o‘rinli bo‘ladi.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga minnatdorchilik bildirish odobini ham o‘rgatib borish lozim. Tilimizda rag‘batlantirishni, minnatdorchilikni ifodalaydigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o‘z o‘rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O‘qituvchi topshiriqni yaxshi o‘tgana talabalarni «>ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so‘zlar bilan rag‘batlantirish mumkin.

2. Ovozdan foydalanish va nutq texnikasi

O‘qituvchilik kasbi bevosita o‘qituvchining ovoz xususiyatlari bilan bog‘liq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z talabalarini ovozinig shiradorligi bilan asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi o‘z ovozinig kuchini, shiradorligini, yoqimlilikini bilishi zarur. Lozim bo‘lganda undan foydalani bilish malakasiga ega bo‘lishi kerak. O‘z ovozida kamchilik sezgan o‘qituvchi uni yo‘qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida hamma vaqt uzluksiz mashq qilib borishi lozim bo‘ladi. Chunki bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo‘lmaydi.

-O‘qituvchining ovozida quyidagi xususiyatlar bo‘lmog‘i lozim:

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo‘lgan darajasi);
- havodorlik (erkin so‘zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo‘lishi);
- ixchamlilik, harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishi);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikaning eshtilish sharoitiga moslasha olishi);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (halaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o‘zgarib turishi);
- suggestivlik (ovozning hayajon ifodalash va bu orqali, qanday so‘z aytilayotganidan qat’iy nazar, tinglovchining xulqiga ta’sir qilish xususiyati).

Nutq texnikasi deyilganda, nutqning tinglovchi yoki talabaga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lganidan, uning

texnikasini ham ikki xil ko'rsatish mumkin: 1. og'zaki nutq texnikasi; 2. yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, fiktsiyaga e'tibor berish, tovushlarning past-baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar kiradi.

O'zbek adabiy tili og'zaki nutq texnikasining rivojiga o'zbek madaniyatining atoqli namoyondalari, shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar, aktyorlar katta hissa qo'shdilar. Bu borada H.Olimjon, aktyorlardan: A.Hidoyatov, Sh.Burhonov, O.Xo'jaev, S.Eshonto'raeva, R.Hamroyev, H.Umarov, suhandonlardan: U.Burhon, T.Yunusxo'jaeva, Q.Maxsumov, N.Qambarova, O'.Jobirov so'z ustasi: M.Hamidovlarning xizmatlarini ko'rsatib o'tish joizdir. Ular o'zlarining shirali ovozlari bilan tinglovchilarni maftun qilib kelganlar.

Hozirgi she'r o'qish texnikasida ikki xil yo'nalish mavjud. Bu she'rxonlikda yaqqol sezilib turadi. Biri an'anaviy he'r o'qish bo'lib, unda asosan she'r turoqlarga, she'r birikmalariga bo'lib o'qiladi. Bu usul keska shoirlarning she'r o'qiganida eshitamiz.

Ikkinchi xil she'r o'qishni esa, shoir A.Oripov va H.Xudayberdiyevalar boshlab berdi. Bu usulda, asosan misradagi har bir so'zga alohida urg'u beriladi, so'zlar bir-biridan kichik pauza bilan ajratib o'qiladi.

Yoshlar orasida keyingi yo'nalishga, usulga ergashish kuchlidir. Bunday yangicha she'r o'qish usullariga mutaxassislar tomonidan hali baho va nom berilgan emas.

Yozma nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi.

Har qanday yozma nutq uchun zarur bo'lgan texnik xususiyatdir.

Ish qog'ozlariga xos bo'lgan texnik xususiyatdir.

Yozma nutq ham xuddi og'zaki nutq kabi tinglovchi (talaba) uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, talabaga tez va butun mohiyat bilan yetib borishidan yozuvchi ham, talaba ham manfaatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

a) har qanday yozma nutq xat boshidan, bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo'lishi, yorqin fikr anglatilishi kerak. Gap tugagandan keyin mazmunga ko'ra tegishli tinish belgilari qo'yilgan bo'lishi kerak;

b) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqning tarkibiy qismi bo'lgan boshqa fikr ham boshidan boshlanishi zarur. Xat boshilar (abzatslar) bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim;

v) dialoglardan tashkil topgan yozma nutqda har bir shaxsning gapi tire orqali yoziladi;

g) ko'chirma gaplar, ko'chirmalar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinadi;

d) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar tire yoki qavs bilan ajratiladi;

e) ot, kesim (bog'lamasiz bo'lganda), izohlovchi, undalma, ajratilgan bo'laklar tegishli tinish belgilar bilan ajratiladi;

j) nutqning xat boshidan yirik qismlari boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Ish qog'ozlari ham yozma nutq hisoblanadi. Ularning yozilishi ham nutqqa xos umumiy talablardan chetga chiqmaydi. Ish qog'ozlari ham talabaga mo'ljallab yoziladi. Ish qog'ozlari mazmun va shakl jihatidan turli-tumandir. Masalan, ariza, ma'lumotnoma, tilxat, qaror, buyruq (farmon), annotatsiya, taqriz, ishonch qog'ozi, tavsifnoma, tavsiyanoma, hisobot, rahmatnoma, munosabatnoma, telegramma, axt, salomxat va h.k.

Ish qog'ozlarining katta qismi o'zining qat'iy texnik shakliga ega. Bunday qat'iy shakl ularni tayyorlashni yengillashtirishdan tashqari talaba uchun o'zida bayon etilgan fikrni tezroq va yorqinroq anglashga ham yordam beradi. Hamma texnik qoidalarga amal qilib yozilgan ish qog'ozlarga o'z tashqi ko'rinishi bilan chiroyli, mazmunan ravshan bo'ladi va talabada qandaydir darajada zavq uyg'otadi.

Har bir ish qog'ozi lug'aviy tarkibi bilan boshqasidan va o'zga nutq ko'rinishlaridan ajralib turadi. Masalan, ma'lumotnoma uchun xos bo'lgan so'zlar, tavsifnomaga yoki qarorga muvofiq bo'lmaydi. Ish qog'ozlarida gaplar kam so'zli, har bir so'z esa, aniq maqsadni ko'zlagan bo'ladi. Ish qog'ozlarida badiiy adabiyotga xos qochirimlar, o'xshatishlar, so'z o'yinlari deyarli ishlatilmaydi.

Har bir ish qog'ozining boshqasidan ajratib turadigan o'z shakli (tashqi ko'rinishi) bo'ladi. Masalan, ma'lumotnomaga chap tomondan shtampga joy qoldiriladi, sarlavha sifatida birinchi bo'lib, ma'lumotnoma so'zi yoziladi. Arizada esa, avval ariza beriladigan tashkilot, rahbarning nomi, so'ngra satrning yarmidan arizachining manzilgohi, tashkiloti, familiyasi yozilib, «Ariza» so'zi o'rtadan bosh xarf bilan boshlanadi va h.k.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Notqlik san'atining paydo bo'lishi tarixi?
 2. Sharq mutafakkirlarining notqlik san'ati haqidagi fikrlari?
 3. Nutq texnikasida nutqning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
 4. Nutqning to'g'riligi va ravonligi, aniqligi va ta'sirchanligiga ta'rifbering?
 5. Nutqning mantiqiyliги deganda nimani tushunasiz?
 6. Til va nutq bir-biridan qanday farqlanadi: ularning qiyosiy tahlili?
 7. O'qituvchi nutqiy faoliyatining komponentlari nima, ularni izohlang?
 8. O'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish vositalari?
 9. Nutning ta'sirchanligi va ifodaliligi qanday namoyon bo'lishini ta'riflab bering?
 10. Tajribali o'qituvchi nutqida namoyon bo'luvchi holatlar?
 11. O'qituvchi nutqining fonksiyalarini izohlab bering?
 12. Bo'lajak o'qituvchi nutqiy faoliyatini qanday takomillashtirishi mumkin?
- Talabalarning mustaqil tayyorgarligi uchun topshiriqlar
- quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o'z filer - mulo-hazalaringizni bildirgan holda "Mustaqil ish" yozing:

3. "O'rta Osiyoda notiqlik san'atining rivojlanishi".
4. "Hozirgi kunda o'qituvchi nutq madaniyatini takomillashtirish muammolari".

AMALIY MASHG'ULOTLAR REJASI

1-amaliy mashg'ulot. O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI KURSINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1. O'qituvchi nutq madaniyati kursining dolzarbligi, uning maqsad va vazifalari.
2. Nutq madaniyati tushunchasi.
3. Nutq madaniyati kursining lingvistik va nolingvistik sohalar bilan aloqasi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: ma'ruza, klaster

amaliy mashg'ulot bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow's technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D. Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996. -86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.
5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
6. Selevko G. K. Sovremennye obrazovatelnye tehnologii.- M., Narodnoye obrazovaniye, 1998.
7. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – T.: 2001.

2-Amaliy mashg'ulot. Nutq madaniyati va notiqlik tarixi (2 soat)

1. Til siyosatining shakllanishi
2. Sharqda notiqlik san'ati.
3. Tilning sofliqi uchun kurash
4. Mamlakatimizda tilga bo'lgan e'tiborning taraqqiy topishi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: ma'ruza, bliss-so'rov, nilufar guli, guruhlarda ishlash.

2-amaliy mashg'ulot bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow's technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.

3. John D.Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996.-86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

3-amaliy mashg‘ulot. Pedagog nutqi va uning texnikasi (2 soat)

1. Aniqlik nutqning asosiy kommunikativ sifati.
2. Nutqiy madaniyat va o‘qituvchi nutqi.
3. Nutqning sofligi va unga putur etkazuvchi unsurlar.
4. Nutq texnikasi.
5. O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar: namoyish etish, jamoada ishlash, [baliq skeleti](#).

3-amaliy mashg‘ulot bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow’s technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D.Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996.-86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

4-amaliy mashg‘ulot. Nutqning uslubiy turlari (2 soat)

1. A) nutqning to‘g‘riligi;
- B) nutqning aniqligi;
- V) nutqning mantiqiyliigi;
- G) nutqning ta’sirchanligi;
- D) nutqning tozaligi;

Qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar: namoyish etish, jamoada ishlash, baliq skileti, [keys stadi](#).

4-amaliy mashg‘ulot bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow’s technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D.Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996.-86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

5-amaliy mashg'ulot. Tilning tasviriy vositalari (2 soat).

1. Ifoda tasviriy vositalari va ularning nutqda tutgan o'rni.
2. Ifoda tasviriy vositalarining turlari.
3. Xozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: [insert texnikasi](#), jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

5-amaliy mashg'ulot bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow's technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D. Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996. -86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

6-amaliy mashg'ulot. Fikrni og'zaki bayon qilish (2 soat).

1. Xozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari
2. Ovozdan foydalanish.
3. Ishbilarmonlik o'yinini tashkil etish texnologiyasi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: Jamoada ishlash, baliq skeleti, [keys stadi](#).

6-amaliy mashg'ulot bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow's technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D. Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996. -86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

7-amaliy mashg'ulot. O'qituvchi nutq odobi va uslubi (2 soat).

1. Nutq odob.
2. Ovozdan foydalanish.
3. Nutq texnikasi.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: jamoada ishlash, [keys stadi](#).

7-amaliy mashg'ulot bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow's technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D.Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996.-86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

8-amaliy mashg'ulot. Ifodali o'qish (2 soat)

1. O'zining xulq-atvorini boshqarish texni-kasi.
2. Nutq madaniyati haqida tushuncha, uning asosiy elementlari.
3. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, ritmika.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: jamoada ishlash, [keys stadi](#).

8-amaliy mashg'ulot bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hutchinson, T. Introduction to Project Work. Oxford: OUP, 1994. 23 p.
2. Andrian Boshner. Educational Computing: Learning with tomorrow's technologies / C.D. Muddux, D.L. Johnson, J.W. Willis. 2nd ed. - Boston: Allyn & Bacon, 1997, -352 p.
3. John D.Hopkins. Project Work. Resource book for teachers. Oxford: OUP, 1996.-86 p.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR, KEYS STADI, VAZIYATLI MASALALAR VA TESTLAR

1-mavzu: Nutq madaniyati fanining maqsad vazifalari Topshiriqlar

1-topshiriq. “nutqning madaniyati” mavzusidagi toifalash jadvali ustida ishlash.

Topshiriq: quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va hamkorlik pedagogikasining tarkibiy qismlariga izoh yozing.

Nutq madaniyati	nutqni faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua	Nutq kontseptsiyasi	Atrof-muhitni

--	--	--	--

2-topshiriq.

Quyida keltirilgan chizma bilan tanishing va nutq madaniyat haqida

Nutq madaniyati	
<i>Afzalliklari</i>	<i>Kamchiliklari</i>
Xulosa:	

2-amaliy mashg'ulot-Notiqlik madaniyati

Topshiriqlar

O'z ixtisosligingiz bilan bog'liqlikda bir mavzuni tanlab oling va tayanch signalni yarating.

Eslatma: tayanch signal o'zaro uzviy bog'lovchi ramzlar (ishora, so'z, sxema, rasm va h.o) bo'lib, qandaydir mohiyatni ifoda etadi.

3-topshiriq. O'z ixtisosligingiz bilan bog'liqlikda bir mavzuni tanlab oling va tayanch konstpektni tuzing.

Eslatma: tayanch konspekt – o'quv materiallari o'zaro bog'langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g'oyalar tizimi o'rnida qo'llana oladigan ko'rgazmali konstruktsiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko'rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

3 - Mavzu. Pedagog nutqi.

Topshiriqlar

1. Quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va pedagogning nutq texnikasi vazifalarini aniqlashtiring.

Nutq texnikasining SXEMATIK IFODALANISHI

Muammolik darajasi	Ta'lim beruvchi nima qiladi?	Ta'lim oluvchi nima qiladi?
0		
I		
II		
III		

2. O'z ixtisosligingiz bilan bog'liqlikda bir mavzuni tanlab oling va bittadan muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriq ishlab chiqing.

Testlar

1. Savol qanday holatlarda muammoli bo'ladi?

A) U ilgari o'zlashtirilgan tushuncha va tasavvurlar bilan mantiqiy bog'langan bo'lsa

V) Ma'lum o'quv vaziyatida o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tushuncha va tasavvurlar bilan bog'langan bo'lsa

S) O'zida bilish qiyinchiligi hamda ma'lum va noma'lumning aniq chegarasining mavjud bo'lishini aks ettirsa

D) Barcha javoblar to'g'ri

2. Qaysi qatorda muammoli ta'limning birinchi darajasi (sathi) ifodalangan?

A. O'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va talabalarni mustaqil ravishda uning yechilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

V. O'qituvchi muammoni qo'yadi, talabalar esa mustaqil hal etadilar

S. Talaba muammoni o'zi qo'yadi va uni o'qituvchi yechadi

D. Talaba muammoni o'zi qo'yadi va uni yechadi

3. Qaysi qatorda muammolikning to'rtinchi darajasi (sathi) ifodalangan?

A. O'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quvchilar esa mustaqil yoki o'qituvchining rahbarligi ostida muammoni yechadilar;

V. O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni o'qituvchi yechadi;

S. O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni yechadi;

D. O'quvchi muammoni qo'yadi. o'qituvchi esa uni yechishga yordam beradi.

4. Muammoli vaziyatning belgilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A. Talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;

V. Vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar;

S. Yuzaga keladigan bilish mashaqqatini hal qilishda shaxsiy manfaatdorlik;

D. Barcha javoblar to'g'ri.

4-mavzu: Nutqning uslubiy turlari

Topshiriqlar

Quyida keltirilgan jadvallar bilan tanishing va ishbilarmonlik o'yinlarini tashkil etishning o'ziga xosliklarini yoritib bering.

<i>Og'zaki nutq uslubi</i>	
<i>tashkil etishda yengilligi</i>	<i>tashkil etishda qiyinchiligi</i>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

<i>Rasmiy uslub</i>	
<i>tashkil etishda yengilligi</i>	<i>tashkil etishda qiyinchiligi</i>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

<i>Abadiy uslub</i>	
<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

✓	✓
✓	✓
✓	✓

Oddiy so‘zlashuv uslub	
<i>tashkil etishda yengilligi</i>	<i>tashkil etishda qiyinchiligi</i>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

Yozma nutq uslubi	
<i>tashkil etishda yengilligi</i>	<i>tashkil etishda qiyinchiligi</i>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

Testlar

1-topshiriq. Quyida keltirilgan test savollari bilan tanishing va daftaringizga to‘g‘ri javoblari kalitini yozing.

1. Syujetli-rolli o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyati.

- A. Muammoli vaziyatlarni hal etishga mo‘ljallangan
- B. Tabiat va tabiiy hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni badiiy usulda yoritish
- C. Kasbiy sifatlarni tarkib toptirish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish
- D. Ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasbga yo‘llash

2. O‘yinda ishtirok etuvchi soniga ko‘ra didaktik o‘yinlar qanday turlarga bo‘linadi ?

- A. Individual, guruhli va ommaviy o‘yinlar
- V. Ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi
- S. Ijodiy, ishbilarmon, rolli o‘yinlar
- D. Konferentsiya, syujtli-rolli, o‘yin mashqlari

3. 1) bo‘lg‘usi tadbirkorlik o‘yinining maqsadini aniqlab olish;2) muammoli vaziyatni anglab yetish; 3) o‘quvchilarga navbatdagi tadbirkorlik o‘yini haqida dastlabki ma’lumotlar berish tadbirkorlik o‘yin-lariga tayyorgarlik ko‘rishning qaysi bosqichiga to‘g‘ri keladi?

A) O‘quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig‘i shaklida qo‘yish

V) Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan avval egallangan bilim-lardan foydalanish

S) Navbatdagi ishni rejalashtirish

D) O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosida reja bo'yicha ishlar-ni bajarish

4. Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin. Bu yerda gap qaysi o'yin texnologiyasi haqida borayapti?

A) Operatsion (voqeiy) o'yinlar

V) Tadbirkorlik teatri

S) Rol ijro etish o'yinlari

D) Imitatsion o'yinlar

5-amaliy mashg'ulot. Tilning tasviriy vositalariva nutq madaniyati

1 – топшириқ..Hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari .

Tasviriy vositalari		Tasviriy vositalarining turlari	
Adabiy tilning shakllari		Ironiya, sarkazm,perifraz nima?	

2 – топшириқ. Tasviriy vositalarining turlari.

Trop
Metofora
Metonomiya
Allegoriya
Mubolag'a
Ritorik
ekspressivlik
Восита
Натижалар (маҳсуллар)
Кўникма
Малака
Мақсад
Мазмун
Ташкил этиш

6- amaliy mavzu: Fikrni og'zaki bayon qilish

Topshiriqlar

Quyida keltirilgan vaziyatlar bilan tanishing va berilgan vaziyatga mos tashqi ko‘rinishni ifoda etib bering.

1-vaziyat. O‘qituvchining sinfga kirib kelishi. Salomlashish. O‘zini tanishtirish va guruh bilan tanishuv.

2-vaziyat. O‘qituvchining auditoriyaga kirishi. Salomlashish. Tasodifan eshik taqillashi. Harakatlaning va munosabat bildiring.

3-vaziyat. O‘qituvchining auditoriyaga kirib kelishi. Salomlashish. Quyidagi tarzda hikoyani boshlash: “Talabalar men sizlarga quyidagi haqida ayimoqchiman...”. Hikoyani davom ettirish (fan bilan bog‘liq yoki qiziqarli biror voqeaga taalluqli). Hikoya qiluvchining vazifasi – talabalarning diqqatini voqeaga jamlash, auditoriya bilan kontaktga kirishish, o‘zining tashqi ko‘rinishi haqida o‘ylash.

2-topshiriq. Umumiy mimik reaksiyani aniqlashga doir topshiriq.

Dars boshlandi. Siz o‘qituvchi stolini oldidasiz. Eshik ochildi. Kirib kelgan talabaga qarang:

Talabchanlikka doir: “Kiring, tezroq o‘tiring”.

Hayratlanishga doir: “Men sizdan buni kutmagan edim”.

So‘roq ohangida: “Tushunmadim, nimadir sodir bo‘ldimi?”

Norozi ohangda: “Ruxsat, sizga! Darsga xalaqit qilmang?”

Xursand ohangda: “Va nihoyat keldizmi?”

3-topshiriq. Individual reaksiyani aks ettirishga doir topshiriq.

Siz doskaga yozyapsiz. Talabalar siz bilan birga daftarlariga yozib borishlari kerak. “To‘satdan” qanaqadir shovqin eshitildi, orqaga qaradingiz, quyidagilarni ifoda eting:

Hayrat bilan: “Tushunmadim, nimadir bo‘ldimi?”

Mulohaza bilan: “Kim, shu shovqin qilayotgan? Haliyam yozishni boshlamadizmi?”

Talabchanlik bilan: “Shovqin qilmang, tinch o‘tirib yozing”.

Zarda ohangida: “Jim, yozayotgan vaqtda shovqin qilmaslik kerak”.

Qayg‘urish ohangida: “Man tushunmayman, yozayotganda vaqtda ham shovqin qilish mumkin-mi?!”

7- amaliy mavzu: O‘qituvshi nutq odobi va uslubi

🔑 - МУСТАҚИЛ ТАЙЁРГАРЛИК УЧУН ТОПШИРИҚЛАР:

□ □ Topshiriq - 1.

Guruhlarga bo‘lingan holda Klaster texnologiyasi asosida vazifalarni bajaring?

1 - guruh: Педагог nutqiga qo‘yilgan zamonaviy talablar


2 – guruh: zamonaviy o‘qituvchi nutqi qanday bo‘lish kerak?

3 – guruh: pedagog mahoratida nutqni shakllantirish va takomillashtirish.

□□Topshiriq – 2

“nima uchun” shemasi asosida “pedagog mahoratni takomillashtirishda nutq madaniyatini ro‘li” ekanligini tahlil qiling.

«Нима учун?» схемаси – Педагог махоратини такомиллаштириш таълим сифатини оширишнинг асосий омилидир.



3-topshiriq: “Nutq”, “Nutqning odobi”, “nutqning uslubi” tushunchalari, ularning o‘zaro farqlarini “BBB” usuli orqali ifodalang.

Ko‘rsatmalar	Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim
Nutq			
Adabiy talaffuz			
Adabiy til			

8-amaliy mashg‘ulot: Ifodali o‘qish

Topshiriqlar

O‘z ixtisosligingiz bilan bog‘liqlikda bir mavzuni tanlab oling va tayanch signalni yarating.

Eslatma: tayanch signal o‘zaro uzviy bog‘lovchi ramzlar (ishora, so‘z, sxema, rasm va h.o) bo‘lib, qandaydir mohiyatni ifoda etadi.

3-topshiriq. O‘z ixtisosligingiz bilan bog‘liqlikda bir mavzuni tanlab oling va tayanch konstpektni tuzing.

Eslatma: tayanch konspekt – o‘quv materiallari o‘zaro bog‘langan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, g‘oyalar tizimi o‘rnida qo‘llana oladigan ko‘rgazmali konstruksiyalardan iborat qisqacha shartli konspekt ko‘rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

- 1 Nutq etikasi va madaniyatida tilning tasviriy vositalaridan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari.
- 2 Nutq mazmuni va tashkiliy asoslari.
- 3 Notqlik san’ati turlari. Notqlik san’ati masalalari.
- 4 Tilning tasviriy vositalari turlari
- 5 Pedagog nutqi xususiyatlari va mazmuni.
- 6 Pedagog nutqi texnikasini rivojlantirish printsiplari.
- 7 Pedagog nutqni ta’limni texnologiyalashtirishdagi ahamiyati
- 8 Tilning tasviriy vositalari xususiyatlari
- 9 Nutqning tasviriy vositalari xususiyatlari
- 10 Nutqning tasviriy vositalari turlari.
- 11 Nutqni tasviriy vositalaridan ta’lim maqsadlarida foydalanish.
- 12 Nutq va uslubi.
- 13 Nutqning uslubiy turlari va shakllari.
14. Amaliy ta’limda nutqning uslubiy turlarini qo‘llash shakllari.
15. O‘qituvchining nutq madaniyati va unga qo‘yiladigan asosiy talablar. Nutqiy faoliyatni oqilona tashkil etish yo‘llari. Nutqiy faoliyat ko‘nikma va malakalari: tovush, diapazon, tembr, diktsiya, ritmika.

GLOCCFRIY

Epitet – badiiy ifodalilikni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Adaptatsiya – ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga, turar joyi sharoiti, moliyaviy sharoiti, psixologik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirish.

o‘hshatish – narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘hshashlikka asoslantirish.

Bakalavriat – o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘yg‘ot muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tanyach oliy ta’lim.

Baholash – o‘rganilgan materialni konkret maqsad uchun baholash ko‘nikmasini anglatadi.

Metafora – o‘brazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish

Bilish – o‘rganilgan materialni konkret faktordan boshlab butun bir nazariyagacha esda saqlash va qayta tiklashni anglatadi.

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o‘qitish

maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Davlat ta'lim standartlari – me'yoriy hujjat bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Dastur – o'quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o'zida mujassamlashtiruvchi me'yoriy hujjatdir.

Didaktika – grekcha didaskien so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'yg'otni o'rgataman ma'nolarini anglatadi. Didaktika – bu o'qitish nazariyasidir. Didaktika o'qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Metanomiya – tashqi va ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa va hodisaga ko'chiradi.

Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligida qo'yilgan muammolar, masalalarni yechishning yo'llarini faol izlashni tashkil etish usuli, fikrlash jarayoni produktiv (unumli) xarakterga ega bo'ladi.

Cinekdoxa – narsalarning son yoki butun qismlari orasidagi munosabatning nazarda tutilishi.

Allegoriya – mavhum tushunchalarni aniq narsa bilan almashtirish.

Simvol – hayotiy voqea, tushuncha va narsalar ifodasi uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishalatiladigan so'z.

Ironiya – biror shaxs yoki uning qilg'i hodisa ustidan kulish.

Antifraza – biror shahs yoki narsaga xos bo'lgan yoki bu hususiyat kulgili ohang bolan inkor qilinadi.

Sarkazm – shaxs narsa yoki hodisaning salbiy tomonini ko'fsatish.

Antiteza – qarama-qarshi tushunchalarni fikr, obraz, narsalarni, shaxslarni xarakterlarini qiyoslash.

Kredit – (European Credit Transfer System (ECTS) sinovdan o'tdi (zachyot), ma'lum bir kursni o'quv yurtida o'tganligi haqida guvohnoma ma'nosini anglatadi.

Qo'llash – o'rganilgan materialni konkret shartlarda va yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini anglatadi.

Ko'nikma – biror shaxsning muayyan faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishi uchun

shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi.

Malaka – ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda bajariladigan ko'nikmalar.

Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar asosida olib boriladi.

Metodologiya – metod va logiya iboralarining birligida bilim faoliyati usuli, tuzilishi vositalari va mantiqiy tartibuyi haqidagi ta'limot ma'nosini anglatadi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini taqdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni bo'limi, muayyan katta mavzusi, o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi.

Modulli o'qitish – xalqaro tushuncha – modul bilan bog'liq bo'lib («modul», lotincha modulus), uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chabarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi.

Operatsion o'yinlar – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma'lum bir o'ziga xos operatsiyalarni: - masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradilar.

Pedagogik o'yin – bu faoliyat turi vaziyatlar sharoitida, o'qitishni aniq maqsad qilib qo'ygan jamoatchilik tajribasini qayta tiklash va o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, o'z-o'zini boshqarishni takomillashtiradi va pedagogik natijalarni ro'yobga chiqaradi.

Pedagogik taksonomiya – (grek so'zlari «taxis» - tartib bilan joylashtirish va «nomos» - qonundan kelib chiqqan) – o'quv maqsadlarining toifalarga va ketma-ketlik darajalarga tasniflab, o'quv fani bo'yicha maqsadlarining aniq tizimni tuzish.

Pedagogika – yunoncha so'z bo'lib, «bolani yetaklash» ma'nosini bildiradi.

Pedagogik-texnologik xarita – pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o'qitish tsiklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biridir.

Produktiv o'zlashtirish darajasi – bunda o'quvchi olgan bilimining noan'anaviy masalalarni yechishda mustaqil fikr yuritishi talab qilinadi.

Psixodrama va sotsiodrama – bu rolli o'yinga, ishbilarmonlik teatriga o'xshagan

bo'lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his kila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Reproduktiv – ushbu test topshiriqlarida sinaluvchidan oldin o'rganilgan tartib asosida mustaqil ish bajarish talab etiladi. Ulardan oldingi yodlangan algoritmlar, qoidalarni eslash talab etiladi.

Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni.

Sintez – elementlardan, bo'limlardan yangilikka ega bo'lgan yaxlitlikni yaratish ko'nikmasini anglatadi.

Credits-host – universitetida (qabul qilgan universitet) muvaffaqiyatli o'tilgan barcha fanlar Post-universitetda (talabani boshqa OTMga jo'natgan universitet) hisobga olinishi zarur.

Tabaqalashtirilgan o'qitish – o'quv jarayonini tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

Tahlil – bu toifa o'rganilgan material tarkibini bo'laklarga bo'lib, uning tuzilmasini yaqqol ko'rsatish ko'nikmalarini anglatadi.

Ta'lim axboroti – muayyan faoliyatturi, ixtisosini amalga oshirishda qo'llashi uchun, ta'lim oluvchiga berish kerak bo'lgan bilimdir.

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Tushunish – uning ko'rsatkichi, materialni bir shakldan boshqa shaklga o'tkazilishi bo'lishi mumkin materialni intepretatsiyasi yoki hodisa va voqealarning kelajagini oqibatlar bashorat qilish.

Tushuntirish-ko'rgazmali yondashuv – o'qituvchilar mashg'ulot davomida o'quv uslubiy adabiyotlardagi ko'rgazmali vositalar orqali «tayyor» holda bilim oladilar.

Transferancy – bu ECTS (European Credit Transfer System) tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to'siqsiz kirishiga shart –sharoit yaratish.

Foydalaniladigan adabiyotlat ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Fan, 2006.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004.
3. Селевко Г.К. Современные образовательнии.- Народное образование, 1998.
4. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. – T.: 2001.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Бондаревская. В.Теория и практика личност нуриентироанного образования.–Ростов-на-Дону:РГПУ,2000.
2. Ochilov M.,Ochilova N. O‘qituvchi odobi.–T.:O‘qituvchi,1997.
3. Подласый И.П.Педагогика.–М.:Владос,2010.
4. Ishmuhamedov R.J.Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari.–T.:TDPU,2005.

Elektron ta’lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz